PS Public Safety
Salvation is in education
Issue 2 12.2024

# JAMOAT XAVFSIZLIGI

## ilmiy-amaliy elektron jurnali




## O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligiga bag‘ishlanadi

№2, 2024

# “JAMOAT XAVFSIZLIGI”
## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

**BOSH MUHARRIR**

**Rustambayev Mirzayusup Xakimovich**

**TAHRIR HAY’ATI**

**SAIDOV Akmal Xolmatovich,**
yu.f.d., professor, akademik;

**DJURAYEV Rustam Mirzayevich,**
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yu.f.f.d., dotsent, general-mayor;

**RUSTAMBAYEV Mirzayusup Xakimovich,**
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yu.f.d., professor polkovnik (bosh muharrir);

**TURG‘UNOV Oybek Karimovich,**
yu.f.d., professor, podpolkovnik (mas‘ul muharrir);

**XO‘JAMBERDIYEV Farrux Komilovich,**
yu.f.f.d (PhD), kapitan

**MAS’UL MUHARRIR**

**TURG‘UNOV Oybek Karimovich**

**MAS’UL KOTIB**

**XO‘JAMBERDIYEV Farrux Komilovich**

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy elektron jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2022-yil 25-yanvar kunidagi №1507-sonli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan.**

**100211, Toshkent viloyati, Chorsu qo‘rg‘oni.**
**Tel: (71) 230-32-71 Faks: (71) 230-32-50**
**E-mail: mg_hti@umail.uz**

## MUNDARIJA
## CONTENTS

Axmedova M., Sodiqova M.
Konstitutsiyada mahalla va ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari sifatidagi o‘rni va ahamiyati ..... 4

Ismailov B E., Omonov M.X.
Konstitutsiyada fuqorolar burchlarining ifodasi ..... 9

Muxammadiyev A.A.
Tashkilotlar hamda fuqarolarning mol-mulklarni qo‘riqlashning o‘ziga xos xususiyatlari ..... 18

Ruziyev R.D.
Xususiy mulk daxlsizligini konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar kafolatlaydi ..... 23

Raxmatov L.N., Abdullayev A.A.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlar salohiyatini oshirish masalalari ..... 29

Azamjonov U.U.
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya - xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi ..33

Jo‘rayev J., Uralov S.O.
Tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini mustahkamlash ..... 37

Vaxidov F.R.
Oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi ..... 42

Botirov F.A.
Inson huquqini takomillashtirishning konstitutsiyaviy asoslari ..... 48

Xodiyev R.X.
Konstitutsiyaviy islohotlar - yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asosi ..... 52

## I

## I. IJTIMOIY SIYOSAT, MA’NAVIY TARAQQIYOT VA MADANIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

**1.1. TOLIPOV Abdug‘affor Abdunabi o‘g‘li,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i, dotsent, polkovnik;
**1.2. MAXMUDOV Rozmet Muratovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, professor;
**1.3. YARASHEV Bobomurod Chalgashevich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta‘minlash kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik;
**1.4. RASULOVA Nodira Sardorovna,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlar nomzodi, dotsent;
**1.5. MIRZAYEV Gulom Rizoqulovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kapitan;
**1.6. XURSANDOV Alisher Suyunovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rgatish kafedrasi boshlig‘i, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.

## II

## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH

**2.1. URMONOV Jahongir Jaloldinovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, iqtisod fanlar doktori, professor, podpolkovnik;
**2.2. BOZOROV Akmal Amonovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, dotsent, mayor;
**2.3. SHADMANOV Erkin Sherkulovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, professor;
**2.4. VALIYEV Bobur Batirovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, dotsent;
**2.5. MATYAKUBOV Bekzod Matnazarovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O‘quv jarayonini nazorat qilish bo‘limi o‘qituvchi-uslubchisi, fizika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), leytenant.

## III

## SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

**3.1. TAXIROV Farxod,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
**3.2. NURMATOV Mirgolib Mirzayevich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
**3.3. USMANOVA Muborak Akmaldjanovna,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
**3.4. GAZIYEV Shaxrux Murodaliyevich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent, kapitan;
**3.5. MAXSADOV Maxsatullo Ismatovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.
**3.6. BABAYEV Akmal Abdukarimovich,** O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik.

## IV

## QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

**4.1. ZULFIQOROV Sherzod Xurramovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
**4.2. CHORIYEV Murod Shokirjonovich,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
**4.3. AXMEDOVA Muqaddasxon Tursunovna,** O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;
**4.4. YULDASHEV Sodiq Oqboyevich,** Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi professori, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);
**4.5. NIZOMIDDINXODJAYEV Ulug'bek Ruslanovich,** Universitet kotibiyat boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik;
**4.6. G'IYOSOV Bahriddin Hasan o'g'li,** Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), kapitan.

## V XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSAT YURITISH

**5.1. ISMOILOV Isomiddin,** O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
**5.2. TASHMANOV Yerjan Baymatovich,** O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi boshlig'i, texnika fanlari doktori, professor, podpolkovnik;
**5.3. AZIZOV Sanjar Xanjarovich,** O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti boshlig'i, harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik;
**5.4. RAXMONOV Farruh Erkinovich,** O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Maxsus taktik tayyorgarlik va jangovar qo'llash" kafedrasi dotsenti, harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik;
**5.5. MAMARASULOV Davronbek Xasanovich,** O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xorijiy harbiy kadrlar bilan ishlash fakulteti boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), mayor;
**5.6. TURSUNOVA Sabina Ravshanovna,** O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), kapitan.




**Axmedova Muqaddasxon,**
Jamoat xavfsizligi universiteti “Fuqaroviy-huquqiy fanlar” kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent

**Sodiqova Mo‘tabarxon,**
Andijon davlat universiteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi

# KONSTITUTSIYADA MAHALLA VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI SIFATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Maqolada mahalla va ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari sifatidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan bo‘lib, o‘tgan yillar mobaynida fuqarolik jamiyati institutlari borasida to‘plangan tajriba, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligining tobora yuksalib borayotganligi, shuningdek, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar jarayonining hozirgi bosqichi davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda ularning rolini kuchaytirishga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar. Fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, Konstitutsiya, ijtimoiy faollik, mahalla, mahalla instituti, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, oila, oila va mahalla, inson huquqlari.

O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimining negizida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yotadi. Mamlakatimizning asosiy qonuni davlat, jamiyat, ijtimoiy va siyosiy xayot, iqtisodiy tizim, barcha jabxalarni tartibga solishga qaratilgan barcha normalarni




o‘zida mujassamlashtiradi. Konstitutsiya bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevor bo‘lib kelmoqda. Konstitutsiyamiz tufayli mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko‘lamlik islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Konstitutsiya xalqimizning manfaatlariga, davlatimizning strategik maqsadlariga to‘la javob beradigan, har tomonlama puxta ishlangan muxim siyosiy hujjat hisoblanadi.

Mamlakatimizda demokratik qadriyatlarni ro‘yobga chiqarishda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan olib borilayotgan izchil islohotlar muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, ular inson huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy faolligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, davlat va hokimiyat tuzilmalari ustidan haqiqiy jamoatchilik nazoratini o‘rnatishdagi mavqeini tobora mustahkamlab bormoqda.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy asoslari alohida bob sifatida kiritilgani ahamiyatlidir. Jumladan, Konstitutsiyamizning 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining mushtarak maqsadi – fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishga, ijtimoiy hamda madaniy maqsadlarga erishish uchun ko‘maklashishga, jamiyatning ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Davlatning fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi vazifalarini Asosiy Qonunimizda belgilovchi normalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va rolini oshirishga, ularning faoliyatini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib, fuqarolik jamiyati institutlari aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtiroklarini ta’minlash orqali davlat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi, - desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayni paytda o‘tgan yillar mobaynida fuqarolik jamiyati institutlari borasida to‘plangan tajriba, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligining tobora yuksalib borayotganligi, shuningdek, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar jarayonining hozirgi bosqichi davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda ularning rolini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Qonunchiligimizda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirishga oid ro‘y bergan yangiliklar jamiyatimizda siyosiy hamjihatlik va siyosiy barqarorlikning huquqiy negizi sifatida siyosiy qarashlarni erkin holda rivojlantirishga, ijobiy siyosiy raqobat muhitini qaror toptirishga eng muhimi, aholining xohish-irodasini ro‘yobga

chiqarishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham bu borada bir qator vazifalar belgilangani soha bo‘yicha keng islohotlar o‘tkazilishi dolzarbligini anglatadi.

Xususan, Taraqqiyot strategiyasining I Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida qator vazifalar belgilangan bo‘lib, uning birinchi maqsadida: “Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish”[1], - ko‘rsatib o‘tilgan.

Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “...millati, tili va dinidan qat’i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan «Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat» g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratamiz. Shu asosda mahalliy boshqaruv organlarining joylarda muammolarni hal etishdagi roli va mas’uliyatini yanada kuchaytiramiz. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o‘tkaziladi”[2].

Ana shunday jamoatchilik tuzilmalaridan biri – mahalla ajdodlarimizdan bizga meros jamoaviy turmush shakli sifatida asrlar osha yashab kelayotgan bo‘lsa-da, mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati poydevori sifatida yanada sayqal topdi. Mahalla noyob, betakror ijtimoiy boshqaruv idorasi bo‘lgani sababli uning roli va ta’sirchanligini oshirish saylov jarayonlari bilan hamohangdir.

Mahalla yuksak ma’naviyat beshigidir. Chunki yuksak ma’naviyat, avvalo, inson tug‘ilib o‘sgan makon - oila va mahallada shakllanadi. Bu muhitda toblangan va ota-bobolarimiz qadriyatlari ruhida tarbiya topgan farzandlarning istiqlol g‘oyalariga sodiq ruhda ulg‘ayishi millat ravnaqining asosiy shartidir.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida o‘zini-o‘zi boshqarish organlar, jumladan mahallalarning ham huquqiy asosi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Davlat fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko‘maklashadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi” [3].

Fikrimizni tasdig‘i O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan quyidagi normada o‘z ifodasini topgan, ya’ni “Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalardaa o‘zini o‘zi boshqarishga doir o‘z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig‘inlari (fuqarolar vakillarining yig‘ilishlari) orqali amalga oshiradi”.

Shu o‘rinda mahallalarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatini amalga oshirishishi qayd etish lozim.

“Rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilishi kerak”. Shuning uchun har bir mutasaddi mahalla va tuman hayotini ipidan ignasigacha bilishi shart[4]. Ulug‘ ajdodlarimiz aytganidek, rahbar xalqqa yuk bo‘lmasligi, aksincha, xalqning yukini yelkasiga olishi kerak. Agar qaysiki rahbar davrning bu o‘tkir talabini tushunmasa, ularni endi xalqimiz ham, hayotning o‘zi ham qabul qilmaydi.

O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj insonlar




holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish kabi ezgu amallar mahalla hayotida yorqin namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog‘idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan, qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

Ommaviy axborot vositalari bugun xalq ovozi, tom ma’noda “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham nodavlat ommaviy axborot vositalarini fuqarolik jamiyati instituti ekanligini konstitutsiyaviy darajada e’tirof etilishi jamiyatimizda so‘z erkinligini inson taraqqiyotining ajralmas va muhim omiliga aylanishiga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XV bobi “Ommaviy axborot vositalari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 81-moddasida, “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir”, - deb belgilab qo‘yilgan[3].

Shuningdek, 82-moddasida esa, “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”, - deyilgan.

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining maqomi konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarilishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, butun davlat boshqaruv tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga – “Yangi shaxs”, “Yangi fuqarolik jamiyati”, “Yangi demokratik boshqaruv” tizimiga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining barcha tizimlarini rivojlantirish va mustaxkamlash, ularlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, aholi turli katlamlari vakillarining ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, eng asosiysi, fuqarolarning joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlariga shaxsiy daxldorlik tuyg‘usini yanada kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat kiladi.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, aholining huquqiy va inson huquqlari borasidagi madaniyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Shunday ekan, fuqarolik jamiyatiga eng muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida qarashimiz lozim. Yangi bosqichda fuqarolik jamiyatining o‘rni tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimiz Asosiy qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, so‘zsiz konstitutsiyaviy islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, fuqarolik



jamiyati institutlari inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, aholining huquqiy va inson huquqlari borasidagi madaniyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatiga eng muhim konstitusiyaviy-huquqiy institut sifatida qarashimiz lozim. Yangi bosqichda fuqarolik jamiyatining o‘rni tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimiz Asosiy qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, so‘zsiz konstitusiyaviy islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga;

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini oshirishga;

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va ularning targ‘ibotlarini kuchaytirish maqsadida xayriya va volontyorlik faoliyatini rivojlantirishga;

To‘rtinchidan, ushbu sohadagi xalqaro indekslarga qo‘shilish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish muhimdir.

**◄ Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони // (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон)
2. Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 ноябрь куни иннаугурация маросимида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2021 йил 7 ноябрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 46, 95-96.
4. Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 ноябрь куни иннаугурация маросимида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2021 йил 7 ноябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 46.

**Ismailov Baxtiyor Eshbayevich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o‘qituvchisi
**Omonov Muhammadjon Xusanovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o‘qituvchisi

# KONSTITUTSIYADA FUQOROLAR BURCHLARINING IFODASI

Ushbu maqolada huquq va burchlar tushunchasi, ularning mohiyati va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobida fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlarining belgilanishi, ularni bajarish bilan bog‘liq holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlariga oid ayrim tushunchalar va ular haqida olimlarning ta’riflari, konstitutsiyaviy burchlarni amalga oshirish borasida davlatimizning boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Davlat, jamiyat, konstitutsiya, fuqaro, huquq, burch, majburiyat, harbiy xizmat, muqobil xizmat, soliq, mahalliy yig‘im, tarixiy-madaniy meros, atrof tabiiy muhit, yashil iqtisodiyot.

This article analyzes the concept of rights and duties, their essence, and the determination of the constitutional duties of citizens in a separate chapter of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the circumstances related to their fulfillment. Also, some concepts of the constitutional duties of citizens and the definitions of scientists about them, comprehensive relations of our state with other countries regarding the implementation of constitutional duties are analyzed.

Key words: State, society, constitution, citizen, right, duty, obligation, military service, alternative service, tax, local levy, historical and cultural heritage, natural environment, green economy.

В данной статье анализируются понятие прав и обязанностей, их сущность, определение конституционных обязанностей граждан в отдельной главе Конституции Республики Узбекистан, а также обстоятельства, связанные с их исполнением. Также анализируются некоторые понятия конституционных обязанностей граждан и определения ученых о них, комплексные отношения нашего государства с другими странами по вопросам реализации конституционных обязанностей.

Ключевые слова: Государство, общество, конституция, гражданин, право, обязанность, обязанность, военная служба, альтернативная служба, налог, местные сборы, историко-культурное наследие, природная среда, зеленая экономика.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari belgilangani kabi ularning burchlari ham belgilangan. Hamma davrlarda ham odamlar huquqlardan foydalanar ekan ular uchun muayyan burchlar ham yuzaga keladi. Huquq bu davlat tomonidan o‘rnatilgan, u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalari tizimi [1]. Ma’lumki, huquq shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan o‘z harakatining turi va me’yorini tanlab olish imkoniyati bo‘lsa, burch jamiyat va davlat tomonidan berilgan va huquqiy normalarda o‘z aksini topgan talablarini bajarish zaruratidir. Burch - kishining biror bir shaxs, oila, jamoa, el-yurt, vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha [2]. Bundan tashqari, burchning o‘ziga xos jihatlari bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Burch, asosan, qoidalardan, axloqiy normalardan kelib chiqadi, majburiyat esa aksar hollarda shartnoma va bitimlardan kelib chiqadi; burch shaxs tug‘ilganidan to umrining oxiriga qadar davom etadi, majburiyat esa shartnomaning amal qilish davrigacha bo‘ladi; shuningdek, burch davlat va jamiyat tomonidan belgilanib, uning bajarilishini talab etadi. Burch bajarilmaganda huquqiy ta’sir choralari qo‘llaniladi[3]. Davlatda fuqarolarning huquqiy holati faqat ularning huquqlari mavjudligi bilan aniqlanmasdan, ularning aniq belgilangan burchlari mavjudligi bilan ham aniqlanadi. Burch ijtimoiy hayotda muhim zarur kategoriyadir. Ayniqsa, fuqaro va davlat munosabatini to‘g‘ri tashkil etishda, manfaatlar mushtarakligini ta’minlashda burch zarur bo‘lib, u davlatda ham, fuqarolarda ham bo‘ladi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-bobi [5] 6 moddani o‘z ichiga oladi bular 59-64- moddalar bo‘lib “Fuqarolarning burchlari” deb nomlanadi. Bundagi burchlar siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy masalalarga taalluqli bajarilishi majburiy xatti-harakatlar hisoblanadi. Konstitutsiyada faqat nimalar burch ekanligi ko‘rsatilib, ularni bajarmaslik uchun jazolar ko‘rsatilmagan. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy normalari gipoteza va dispazitsiyadan iborat va sanksiyani nazarda tutmaydi. Belgilangan burchlarni bajarmaganlik uchun jinoyat kodeksi va ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarda jazolar belgilangan. Burchlarni bajarmaganlik uchun jazo turlari va miqdori qonunlarda belgilangan doirada sud tomonidan belgilanadi. Burchlarni bajarish barcha uchun majburiydir, ayrim burchlar esa alohida fuqarolarga taalluqlidir. Masalan, harbiy xizmatni yoki muqobil xizmatni o‘tash burchi hammaga ham taalluqli emas. Xuddi shuningdek, qonunda belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni hech qanday daromadga ega bo‘lmaganlar to‘lamaydi. Fuqarolarga yashash, mehnat qilish, bilim olish va boshqa faoliyatlari bo‘yicha ko‘plab burchlar belgilangan. Konstitutsiyada esa jamiyat va davlat hayoti uchun umumiy va eng zarur, qilinishi majburiy yoki qilinishi mumkin bo‘lmagan xatti-harakatlar burch sifatida belgilangan. Shuning uchun ular mazmuni, amal qilish doirasi, ahamiyati nuqtai nazaridan asosiy burchlar, deb ataladi.

Fuqarolarning “Konstitutsiyaviy burchi” yoki “asosiy burchi” bir manoda ishlatiladi va tushuniladi. Asosiy burchlarning bajarilishidan jamiyat a’zolari, davlat birdek manfaatdordir. Yana burchlarning ixtiyoriy va to‘la bajarilishi jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Vaholanki, konstitutsiyada belgilangan har qanday burch fuqarolar uchun bajarilishi shart hisoblanadi. Xuddi huquqlarsiz burchlar bo‘lmagani kabi, burchlarsiz huquqlar ham bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-bobi “Fuqarolarning burchlari” 59-moddadan boshlanadi “Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarni bajaradilar”, deb belgilangan qoida konstitutasiyaviy burchlarni bajarilishi shart ekanligini ko‘rsatib, barcha konstitutsiyaviy buchlarni bajarilishini ta’minlashga qaratilgan umumiy va rahbariy qoida hisoblanadi. Chunki konstitutsiyamizda belgilanganidek, konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi. Ushbu norma konstitutsiya normalarining bajarilishi majburiy hisoblangani kabi konstitutsiyada belgilangan burchlarning bajarilishi ham majburiyligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida esa bu burch yanada aniqlashtirilgan va doirasi kengaytirilgan. Unga asosan, “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”. Demak, birinchidan, har

bir fuqaro, nafaqat, konstitutsiyaga, balki barcha qonunlarga bo‘ysunishga majbur. Bu qonuniylik prinspining mazmun va mohiyatiga mos kelib, ana shu prinspning amalga oshishini ta’minlashni nazarda tutadi. Ikkinchidan, har bir kishi - fuqaro boshqa kishilarning huquqlarini, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir, ushbu 60-modda va konstitutsiyamizning 5-bobi 21-moddalarida mazmun jihatdan o‘xshashliklar mavjud ammo bu o‘xshashlik faqat tashqi tomondan, ma’nosi esa boshqa boshqa [6]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar” degan norma belgilangan va 21-moddada “Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasliklari shart” degan bir biriga o‘xshab ketdigan qoidalarni quyidagicha farqlash mumkin. 60-modda konstitutsiya va qonunlarga rioya etishda deyotgan bo‘lsa 21-moddada esa insonlar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda deyilgan, 60-moddada hurmat qilish deyilgan bo‘lsa, 21-moddada putur yetkazmaslik deyilgan, shuning uchun ham yuqorida bu o‘xshashlik faqat tashqi korinishda deb ta’kidlab o‘tdik. Bu konstitutsiyaviy burch fuqarolarga, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga va ajnabiy fuqarolarga ham birdek bajarilishi shart bo‘lgan burch hisoblanadi. Chunki

O‘zbekiston hududida yashayotgan fuqarolardan tortib fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va ajnabiy fuqarolar ham konstitutsiya va qonunlarni ustunligini anglagan holda ularga birdek bo‘ysunishi majburiy hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida “Fuqarolar o‘zbek xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab avaylashi shart ekanligi belgilab o‘tilgan. Tarixiy, manaviy, madaniy ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan himoya qilinadi”. O‘zbekiston xalqining tarixiy yodgorliklari, madaniy va ma’naviy merosi butun xalqining milliy boyligidir. Bu milliy boylik asrlar davomida yaratildi va har birimiz ajdodlarimizning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishimiz lozim. Bu sohada qator qonunlar qabul qilingan bo‘lib, shular jumlasiga “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun ham kiradi. Tarixiy-madaniy joylar quyidagilarga bo’linadi: Ansambllar - tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me’moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta’lim, istehkom, saroy, turar-joy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘-rog‘ san’ati asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar); Diqqatga sazovor joylar - inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek, tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar; Yodgorliklar - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek, memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san’at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san’at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib

solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari hisoblanadi. Madaniy meros obyektlari ikki turga bo‘linadi. Bular moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlaridir. moddiy madaniy meros obyektlari - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar; nomoddiy madaniy meros obyektlari - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar [7].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati Abdullayeva Oydin Utamuradovna “Madaniy merosni asrab-avaylash umumxalq ishi” nomli maqolasida bir qancha ahamiyatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Shuningdek, o‘z ma’lumotlarida “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida madaniy meros obyektlarining davlat tomonidan muhofaza qilinishi qat’iy belgilab qo‘yilganligini ta’kidlagan. Ushbu qonunda madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ham nazarda tutilgan bo‘lib, moddiy madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash, ta’mirlash, hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirishni, shuningdek, ular bilan bog‘liq ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini o‘tkazish tartibi aniq va qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 8210 ta moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyekti davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura obyektlari, 625 tasi monumental san’at asarlari, 530 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan so‘nggi vaqtlarda madaniy meros obyektlariga zarar etkazilgan holatlar yuzasidan o‘tkazilayotgan taftish va tergov harakatlaridan ma’lum bo‘lishicha, respublika bo‘yicha 14 ta moddiy madaniy meros obyektlarini ta’mirlash-tiklash loyiha hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Turizm va mdaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi Ilmiy-ekspert kengashi bilan kelishilmasdan, jami 12 454,9 mln. so‘mlik ta’mirlash-tiklash ishlari bajarilgan. Vaholanki, amaldagi qonunchilikka asosan Madaniy meros agentligi Ilmiy-ekspert kengashining ruxsatisiz madaniy meros obyektlarida biron-bir restavratsiya yoki ta’mirlash ishlarini amalga oshirish ta’qiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida madaniyat va san’at muassasalarining to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish vazifasi qo‘yilgan. Shuningdek, bir qator obidalar qoshida jamoatchilik inspektorini biriktirish vazifasi ham alohida belgilab qo‘yilganligini ta’kidlab o‘tgan. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi va mahalliy davlat hokimyati organlari tomonidan amalga oshiriladi [8]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” degan norma belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish “O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida o‘z aksini topgan bo‘lib, ular fuqarolar zimmasiga quyidagi burchlarni yuklaydi. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish; Tabiiy boyliklarni asrab avaylash; Tabiiy obyektlari bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy merosini saqlab qolish. Bugungi kunda inson hayoti uchun tabiatni yo‘q qilish, havo, yer va suvni ifloslantirishdek katta xavf-xatar yo‘q. Tabiatni qutqarar ekanmiz, biz o‘z-o‘zimizni halokatdan halos etamiz.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va tabiiy muhitni saqlash bo‘yicha olib borilayotgan oqilona ishlarga misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayevni, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Naxayonning taklifiga binoan Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha” konferensiyasining (COP 28) asosiy yalpi sessiyasida o‘z nutqi va takliflari bilan ishtirok etganini keltirish mumkin. Prezidentimiz o‘z nutqida quyidagilarni keltirib o‘tgan:

’’Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoqda.Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo‘qoldi.Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.Bu global xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda.“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasidir.So‘nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko‘paydi.Biz 2030-yilga borib 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini barpo etamiz. “Yashil” vodorod ishlab chiqarish bo‘yicha ilk amaliy qadamlarni tashladik.“Yashil makon” tashabbusi doirasida mamlakatimizda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda.

Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmonlar barpo etdik.Biz Iqlim o‘zgarishiga qarshi faqat birdamlik va keng xalqaro hamkorlik orqali samarali kurashishimiz mumkin. Bu borada quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman. Birinchidan, Parij shartnomasi doirasida Iqlim o‘zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmni tezroq kelishish tarafdorimiz. Biz Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida Adaptatsiya strategiyasini ishlab chiqmoqdamiz. Kecha “Yo‘qotish va zararlar” jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan muhim qarorni yuksak baholaymiz. Ikkinchidan, global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish adolatli, shaffof va inklyuziv bo‘lishi zarur. Bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari albatta inobatga olinishi shart. Bu muammoni “Katta yettilik va yigirmalik” formatlarida doimiy ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolyutsiyasi asosida Orolbo‘yi hududini ekologik ofat zonasidan “innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi”ga aylantirmoqchimiz. Bu yerda Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-xabini yaratishda yaqin hamkorlikka taklif etaman. To‘rtinchidan, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozim. Toshkentdagi “Yashil universitet” negizidagi “Iqlim ilmiy forumi”da davlatlaringiz yetakchi olim va ekspertlarini ishtirok etishga chaqiraman. Yer degradatsiyasi, suvdan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari Forum kun tartibidan joy oladi, deb ishonaman. Beshinchidan, BMT bilan 2024-yili O‘zbekistonda “Iqlim migratsiyasi” konferensiyasini o‘tkazish niyatidamiz. Xalqaro mehnat tashkiloti bilan “Yashil bandlik” dastur’’ni ishlab chiqish va Modellashtirish markazini tashkil etishni taklif qilaman [8]. Shu va shu kabi chora tadbirlar bugungi kunda atrof muhitni asrab avaylash va biz insoniyat uchun sog‘lom yashash muhitini yaratish uchun olib borilayotgani hech kimga sir emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashi shart degan norma belgilangan. Ushbu norma barcha fuqarolarga soliq va boshqa yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lash majburiyatini yuklaydi. Soliq va yig‘im tushunchalariga soliq kodeksining 16-moddasida [10] ta’rif berilgan. Soliq bu O‘zbekiston Respublikasining davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armalariga (bundan buyon matnda budjet tizimi deb yuritiladi) to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi. Yig‘im deganda budjet tizimiga soliq kodeksida yoki boshqa qonunchalik hujjatlarida belgilangan majburiy to‘lov tushuniladi, bu yig‘imning to‘lanishi uni to‘lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq kodeksida va nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi. Soliq kodeksining 17-moddasida soliqlarning turlari sifatida quyidagilar belgilab o‘tilgan:

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i;
2. Aksiz solig‘i ;
3. Foyda solig‘i;
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan

daromat solig‘i ;

5. Yer qaridan foydalanganlik uchuun soliq ;

6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

7. Mol-mulk solig‘i;

8. Yer solig‘i ;

9. Ijtimoiy soliq;

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 149-moddasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilish huquqi O’zbekiston Respubliaksi Oliy Majlisiga tegishlidir. Shuningdek, ushbu norma konstitutsiyamizning 93-moddasida yanada aniqlashtirilib soliqlarni joriy qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolati ekanligi belgilab o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi. Yig‘imning asosiy xususiyati shundaki, uni to‘laganlik uchun davlatning qaysidir organlari fuqarolarning manfaatlari uchun harakat qiladi. Yig‘imlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: fuqarolik pasportini olish uchun to‘lov, chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit uchun yig‘im, yuk ko‘tarish qiymati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomabil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im hamda alkagol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarni keltirish mumkin.

Davlatning eng muhim belgilaridan biri unda soliqlarning joriy qilinganligidir. Bu belgi davlatning soliqlar orqali o‘z byudjeti va maqsadli jamg‘armalarini shakillantirishini ham anglatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimining yagonaligi prinspi mavjud. Mamlakatni butun hududida yagona soliq amal qiladi lekin ayrim hududlarda rivojlanish surati va iqtisodi nisbatan pastroq joylarda soliqlar uchun ayrim yengilliklar berilishi, soliqlarning stavkalari pasaytirilishi mumkin. Bu aholining yashash sharoiti va potensialidan kelib chiqib belgilanadi. Boshqa davlatlar bilan taqqoslab qaraydigan bo‘lsak, federativ davlatlarda jumladan AQSH da har bir shtatda har xil soliq olinadi va soliqlarning turlari farq qiladi. Lekin ahamiyatli jihati shundaki, oshkoralik prinspiga to‘liq amal qilinadi. Masalan, K ismli fuqaro soliq to‘lagan bo‘lsa o‘sha soliqni nimaga sarflanganligi fuqaroning telefoniga sms bo‘lib keladi va unda to‘lagan soliqni aynan qaysi sohaga ishlatilganligi izohlab beriladi. Soliq huquqi moliya huquqining instutlaridan biri bo‘lib, u soliq to‘lovlari joriy etishdir va undirib olish vaqtida yuzaga keladi. Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi xamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmasligi kerak” ligi belgilangan. Bu nima degani? Bu - soliqlar fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan huquqlari, xususan, saylash va saylanish, mulkdor bo‘lishi va mulk daxlsizligi, uy-joyli bo‘lish, mehnat qilish, dam olish, ta’lim olish, davolanish va tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqlaridan foydalanishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Chunki davlat konstitutsiyada inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlamoqda. Masalan, oddiy qilib tushuntirganda, agar fuqarolarni soliqdan qarzi bo‘lsa yoki uni tol‘ay olmasa majburiy undiruv uning mol-mulkiga qaratilmaydi, mol-mulki yoki uy-joyi musodara qilinmaydi. Xorijiy davlatlar tajribasidan misol qiladigan bo‘lsak, AQSH ning Kaliforniya shtatida [11] fuqarolarning soliqdan qarzi bo‘lib, uni vaqtida to‘lay olmasa o‘sha shtatdagi saylov jarayonlarida qatnashish va saylash huquqidan mahrum etilar ekan. Soliq solish nazariyasining asoschisi A.Smit soliqlar tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan. Soliqlar-ularni to‘lovchi shaxslar uchun qullik emas balki ozodlik alomatidir [12]. Shu bilan birga qadimgi davrlarda soliq va uning yig‘ilishiga nazar soladigan bo‘lsak, davlat aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilishi kafolatlangan.

Soliq solishda ijtimoiy davlatning belgilari “Temur tuzuklari” da ham yozilgan bo‘lib, “Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa yoki biron bog‘ ko‘kartirsa yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilsin», deb ta’kidlangan. Soliqlar davlat daromadlari tarkibida eng salmoqli o‘rinni egallaydi. Soliqlar va yig‘imlarni joriy etishda yoki ularni oshirishda soliq to‘lovchilarning

iqtisodiy ahvoli va mulkiy manfaatlari adolatli tarzda e’tiborga olinishi, muhofaza etilishi zarur [13] . Qo‘shimcha sifatida shuni aytish joizki, soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik yoki to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun qonunchiligimizda jinoiy va ma’muriy javobgarliklar mavjud. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasiga [14] ko‘ra soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) yoxud soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari, mansabdor shaxslarga esa - o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida, mansabdor shaxslarga esa - o‘ttiz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Shuningdek, jinoyat kodeksining 184-moddasiga [15] ko‘ra, foyda (daromad) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko‘rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ro‘y bergan bo‘lsa - bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorida jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, takroran yoki ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorida jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu jinoyatni juda ko‘p miqdorda sodir etish bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan burchlaridan yana biri bu harbiy xizmatni o‘tash va vatanni himoya qilish majburiyatidir. Ushbu normaga ko‘ra, konstitutsiyamizning 64-moddasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar. O‘zbekiston Respublikasini o‘zining vatani deb hisoblagan har bir inson uni himoya qilishi nihoyatda zarur va tabiiy talabdir. Mazkur burchning mazmuni:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini himoya qilish;

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini himoya qilish;

Uchinchidan, respublikaning barcha sohalari bo‘yicha manfaatlarini himoya qilishni;

To‘rtinchidan, O‘zbekiston aholisining tinch va osoyishta, xavfsiz va faravon hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, harbiy tadbirlarda faol qatnashish kabi talablarni o‘z ichiga oladi [16].

Fuqarolarning bu asosiy burchi boshqa davlatlarning doimiy yoki vaqtincha O‘zbekistonda yashab turgan fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan insonlarga ta-alluqli emas. Chunki ular O’zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga yoki harbiy tayyorgarlikka jalb qilinmaydi. Harbiy xizmat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

- Muddatli harbiy xizmat;
- Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar [17]. Harbiy xizmatni o‘tash har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchidir. Bu burchlarning mazmuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi, hamda “Muqobil xizmat to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida aniq belgilangan. Umumiy harbiy xizmatni o‘tash burchi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, o‘z vatanini qurolli himoya

qilish uchun majburiy harbiy tayyorgarlikdan o‘tish;

Ikkinchidan, O‘zbekiston qurolli kuchlarini harbiy xizmatchilar bilan ta’minlash va harbiy xizmatchilar zahirasini yaratish;

Uchinchidan, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash;

To‘rtinchidan, chaqiruv uchastkalarida qayd etilish, zahirada xizmat qilish;

Beshinchidan, harbiy xizmatdan o‘tish qoidalariga rioya qilish;

Oltinchidan, umumiy harbiy ta’limni olish.

Muqobil xizmat O‘zbekiston Respublikasining “Muqobil xizmat to‘g‘risida” gi Qonuni [18] bilan tartibga solinadi. Muqobil xizmat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘taydigan davlat xizmatining alohida turidir. Bu xizmat fuqaroning korxonalardagi, muassasalardagi, xalq xo‘jaligi tashkilotlaridagi, yuqori malaka talab qilinmaydigan ishlarni yoki o‘z malakasiga mos ishlarni, shu jumladan, falokat, fojia, tabiiy ofat va boshqa favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etishga oid ishlarni bajarish bilan bog‘liqdir. Muqobil xizmat fuqarolarni harbiy ishga o‘rgatishni hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun zahiradagi jangchilar tayyorlashni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshdan 27 yoshgacha bo‘lgan, harbiy hisobda turadigan, muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi lozim bo‘lgan fuqarolari, basharti ular xizmatga chaqirilayotgan shaxslardan tashqari 16 yoshga to‘lmagan to‘rt va undan ortiq bolali oiladan bo‘lsalar, harbiy xizmatni o‘tash davrida nogiron bo‘lib qolgan ota-onasi yoki aka-ukalari bo‘lsa, diniy e’tiqodi qurol ushlashga yoki Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo‘l qo‘ymaydigan ro‘yxatdan o‘tgan diniy tashkilotning a’zosi bo‘lsalar muqobil xizmatni o‘tash huquqiga ega bo‘ladilar. Muqobil xizmatning muddati yigirma to‘rt oyni, oliy ma’lumotli fuqarolar uchun esa o‘n sakkiz oyni tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muqobil xizmatni o‘tash huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarning o‘zga toifalarini ham belgilashi mumkin. Muqobil xizmatni o‘tayotgan shaxslar muqobil xizmat xizmatchilari deb ataladilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, fuqarolarning burchlari konstitutsiya miqyosida belgilanishi uni fuqarolar uchun bajarilishi majburiy hisoblangan majburiyati ekanligini anglash mumkin. Chunki konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar. Burchlarni bajarish barcha fuqarolar uchun majburiy hisoblanmaydi, misol uchun soliqlarni to‘lash majburiyati bu mol-mulkka ega fuqarolar uchun va harbiy va muqobil xizmatni o‘tash majburiyati faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun taalluqli bo‘lib, O‘zbekiston hududida yashab kelayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, xorijiy davlat fuqarolari uchun tegishli emas. Barcha fuqarolar o‘zlarining konstitutsiyaviy burchlarini bajarish majburiyati borligini his qilgan holda o‘z vaqtida bajarsalar bu nafaqat o‘zlari uchun balki davlatimiz uchun ham foydalidir. Chunki soliqlarni o‘z vaqtida to‘lasalar ushbu mablag‘lar orqali davlat ta’lim, ijtimoiy sohani, iqtisodiy soha va boshqalarni rivojlantirish ish haqi, nafaqalarni o‘z vaqtida to‘lashi mumkin. Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish orqali o‘zimiz uchun, yaxshi yashashimiz uchun, qulay va sog‘lom muhitni yaratishimiz mumkin. Tarixiy, madaniy, ma’naviy va ilmiy merosimizni asrab avaylash orqali nafaqat ularni balki o‘zligimizni asrab qolishimiz va ushbu merosni kelajak avlodga yetkazishimiz mumkin.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari: Darslik/Mualliflar guruhi; Huquq va jamiyat nashriyoti; - Toshkent:, 2019 - 192b.

2. B.T.Musayev, K.R.Aliyeva, B.Narimonov. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi.// Darslik. - Toshkent: TDYU,2019. - b.

3. Ўзбекистон Республикасининг Конститутсиясига шарҳ/ А.А.Азизхўжаев [ва бошқ.], Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик ин-ти. - Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. - Тошкент: Ўзбекистон, 2013. - 5446.

4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent: Adolat.2013. - 552 b.

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ( 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan)

6. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent: Adolat.2013. - 552 b.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” gi O‘RQ-269- II-son Qonuni
8. https://parliament.gov.uz/articles/372
9. https://yuz.uz/uz/news/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata.mirziyoeva-na-konferentsii-organizatsii-obedinyonnx-natsiy-po-izmeneniyu-klimata.cop28
10. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2019.,
11. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-soliq-va-yigimlar-adolatli-bolishi konstitutsiyada-huquqiy-mustahkamlanmoqda_465809
12. Davlat va huquq asoslari: O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar muassasalari uchun darslik / N.Ismatova, O.Karimova. - Birinchi nashr. - Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. - 144 b.

**Muxammadiyev Ayub Abduraxmanovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yu.f.d., professor

# TASHKILOTLAR HAMDA FUQAROLARNING MOL-MULKLARNI QO‘RIQLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ushbu maqolada tashkilotlarga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulklarni qo‘riqlash faoliyati muntazam ravishda takomillashtirib borayotganligi, bundan ko‘zlangan maqsad davlat va xalq boyligi, fuqarolarning mulklarini jinoiy tajovvuzlardan ishonchli himoyalash, ularning to‘liq xavfsizligini ta’minlashdan iborat ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tashkilot, fuqaro, mol-mulk, qo‘riqlash, davlat, xalq boyligi, jinoiy tajovvuz, ishonchli himoya, xavfsizlikni ta’minlash, aholining tinch hayoti.

В данной статье поясняется, что деятельность по охране имущества, принадлежащего организациям и гражданам, регулярно совершенствуется, целью этого является надёжная защита государственного народного богатство, собственности граждан от преступных посягательств, обеспечение их полной безопасности.

Ключевые слова: организация, гражданин, собственность, безопасность, государство, национальное богатство, криминальная агрессия, надёжная защита, мирная жизнь населения.

This article explains that the activity of protecting property belonging to organizations and citizens is regularly improved, the purpose of this is the reliable protection of state national wealth, property of citizens from criminal encroachments, ensuring their complete safety.

Key words: organization, citizen, property, security, state, national wealth, criminal, aggresion, reliable, protection, peaceful life of the population.



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI — ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 27-bobi 152-153-moddalarida[1] mudofaa va xavfsizlik masalalarining konstitusiyaviy asoslari belgilangan bo‘lib, davlatimizning suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoyasini ta’minlash vazifasi O‘zbekiston Qurolli kuchlari qatorida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi zimmasiga ham yuklatilgan. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 avgustdagi Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligi va davlat suvere-nitetini himoya qilish, fuqarolarning konstitusion huquq va erkin-liklarini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi. Xususan, mazkur Farmon asosida amalga oshirilgan islohotlar davomida 2019 yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufidan chiqarilib, Milliy gvardiya tarkibiga o‘tkazildi.

Qo‘riqlash xizmati - qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatuvchi qo‘riqlanayotgan obyektlarda saqlanayotgan moddiy-tovar boyliklarning butligini ta’minlash, ularni o‘g‘irlanishi va talon-taroj qilinishini oldini olish, obyektlar va ularga tutash hududlarda turli huquqbuzarliklarning oldini olish, bu boradagi tashviqot-targ‘ibot yuritishga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibini yurituvchi huquqiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi[2].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmati faoliyati bilan bog‘lik munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni[3], “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni[4] va sohaga oid boshqa qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublika-sining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilanishicha, Milliy gvardiya qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi.

Bugungi kunda, O‘zbekistonda xususiy qo‘riqlash organi, tashkilot hamda korxonalar mavjud emas. O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi[5].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini quyidagi xizmat turlari orqali ishonchli qo‘riqlanishini ta’minlaydi:

- texnik qo‘riqlash markazlari ishtirokida; saf bo‘linmalari yordamida; harbiylashtirilgan soqchilik bo‘linmalari



orqali; qorovul bo‘linmalari ishtirokida; tashvish tugmalari yordamida; ko‘p qavatli uylardagi xonadonlarni yong‘indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalari orqali qo‘riqlash; kirib-chiqish nazorati va boshqaruv qurilmalari bilan ishlash; kabelli kollektorlar va magistrallar qurilmalarini qo‘riqlash; uzoq masofalardan aniqlaydigan qurilmalar yordamida obyektlarni qo‘riqlash; telefon aloqasi mavjud bo‘lmagan joylarda GSM uyali aloqa kanallari orqali qo‘riqlashni amalga oshiradi.

Mustaqillik yillarida qo‘riqlash bilan bog‘lik faoliyat mustah-kamlandi. Qo‘riqlash xizmati faoliyati – qo‘riqlanayotgan obyektlarda huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatini tashkillash-tiradi hamda qo‘riqlanayotgan obyekt hududini inobatga olgan holda huquqbuzarliklarni oldini olish bo‘yicha kompleks huquqiy chora-tadbirlarini amalga oshiruvchi davlatning qo‘riqlash funksiyasi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Respublikada davlat obyektlari, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni samarali qo‘riqlashni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini ishonchli himoya qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ilg‘or xorijiy tajriba asosida qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari joriy qilinishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning qo‘riqlashga olingan obyektlari soni oshdi[6].

Qo‘riqlash bo‘linmalarining yaxlit tizimini shakllantirish, qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish bugungi qo‘riqlash sohasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, obyektlarni qo‘riqlash tizimi “Yuqori sifat va qulay narx” tamoyili asosida bir-qator chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilishni rivojlantirish yo‘nalishlarida Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmatiga haqiqatda mulkni muhofaza qilish sohasidagi davlat texnik siyosatini belgilab berilganligini hisobga olib, turli toifadagi obyektlarni muhofaza qilishni tashkil yetishga mo‘ljallangan texnik vositalarga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilovchi tegishli davlat normativ-huquqiy bazasini yaratish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi 930-son qaroriga asosan[7], Milliy gvardiya qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar ro‘yxati belgilab berildi. Ushbu ro‘yxatga kiritilgan obyektlarni ikki yo‘nalishda olib qarashimiz mumkin:

Birinchi, saf bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar:

Ikkinchi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining texnik qo‘riqlash vositalari monitoring va nazorat markazlari tomonidan texnik qo‘riqlash vositalari yordamida qo‘riqlanadigan obyektlar.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bo‘linmalarida xizmat ko‘rsatishning eng taraqqiy etgan, iqtisodiy jihatdan kulay shakllari yuzaga keldi va hayotga joriy etildi; yanada tezkor, harakatchan, obyekt va xonadonlar qo‘rig‘i, xavfsizligi, mudofaasini ta’minlash borasida o‘z oldiga qo‘yilgan tezkor vazifalarni to‘liq bajara oladigan bo‘linmalar shakllantirildi; faoliyatga ilg‘or, zamonaviy signalizatsiya va texnika vositalari joriy etilmoqda. Muhimi, qo‘riqlash faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi va muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Bulardan ko‘zlangan maqsad davlat va xalq boyligi, fuqarolarning mulklarini jinoiy tajovuzlardan ishonchli himoyalash, ularning to‘liq xavfsizligini ta’minlashdan iborat.

Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalarning namunaviy shakllaridagi tomonlarning javobgarligi yoritilgan.

Jumladan, shartnomada ko‘rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o‘z vaqtida to‘lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

Ijrochining xodimi postda va patrul yo‘nalishlarida bo‘lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to‘laydi, biroq bunda ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

Penyani to‘lash Buyurtmachi va Ijrochini o‘z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. Ijrochi mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo‘ladi. Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to‘liq miqdorda qoplanadi.

Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zararning miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a’zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo‘lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

Binobarin, manfaatdor taraf shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi yoki bekor qilish haqidagi ariza bilan sudga quyidagi vaziyatlarda murojaat qilishi mumkin: boshqa taraf shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish taklifini rad etganida; taklifda belgilangan muddat ichida javob olinmaganida; qonun yoki shartnomada belgilangan muddat ichida javob olinmaganida.

Bunday muddat ko‘rsatilmagan va shartnoma tuzilishi vaqtida kelishilmagan hollarda 30 kunlik muddat ichida javob olishni nazarda tutuvchi dispozitiv norma kiritilgan. Shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi va bekor qilish haqidagi taklifga javob olish muddatlariga doir bunday norma bir qator shartnomalarga nisbatan nazarda tutilgan. Shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risida yoki bekor qilish haqida taklif olgan tarafning javobdan bo‘yin tovlashi yoki sukut saqlashi uning roziligi sifatida baholanmaydi.

Sudlar amaliyoti tahlil qilinganda, qo‘riqlashni ta’minlashda shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal yetishda sudlarning huquqiy normalarni qo‘llashga yagona yondashuvi yo‘qligi bilan bog‘liq aniq muammo mavjud. Ba’zi sudlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining umumiy qoidalariga amal qilishlari mumkin, boshqalari esa qo‘riqlash shartnomasini tartibga soluvchi qoidalarga ishora qiladilar, boshqalari esa odatda davlat xaridlarini tartibga solish bilan bog‘liq qoidalarga ishora qiladilar. Shu bilan birga, sudlar “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning qoidalariga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Albatta, ushbu qonunda qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlarning javobgarligi institutini tartibga soluvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qoidalar mavjud emas. Biroq, hech bo‘lmaganda bunday shartnomani tuzish haqiqati bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni ko‘rib chiqishda qo‘riqlash faoliyatining qo‘riqlash shartnomasi va boshqalarga muvofiqligini tekshirish uchun uning qoidalariga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, birinchidan, qo‘riqlash shartnomasini ham, tomonlarning javobgarligini ham tartibga soluvchi tizimlashtirilgan huquqiy normalarning yo‘qligi, ikkinchidan, sudlarning mavjud huquqiy normalarni qo‘llash yagona yondashuvdan foydalanmasligi bilan bog‘liq muammo mavjud. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan normalar juda umumiy xususiyatga ega.

Qo‘riqlash shartnomasining qonunchilik darajasida to‘g‘ri tartibga solinmaganligi shartnoma majburiyatlarini bajarish jarayonida taraflar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudlar tomonidan noto‘g‘ri va noaniq hal qilishga olib keladi.

Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlarning javobgarligi institutini huquqiy tartibga solish muammolarini hal qilish uchun quyidagi asosiy choralarni ko‘rish maqsadga muvofiqdir: qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasini tartibga soluvchi qonunchilik normalarining tizimliligi va birligini ta’minlash maqsadida murojaat xarakteridagi normalarni ishlab chiqish va ularni “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga kiritish; sudlar uchun qonunchilik normalarini qo‘llash va qo‘riqlash shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish bo‘yicha maxsus tushuntirishlar ishlab chiqish talab etiladi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1.Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2023.
2.М.М.Нарзиева, “Ўзбекистон Республикаси қўриқлаш хизмати фаолиятини маъмурий-ҳуқуқий жиҳатларини такомиллаштириш” Диссертация иши 2022, 15б.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги

қонуни, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022 й., https://lex.uz
4. Ўзбекистон Республикасининг “Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги қонуни, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022 й., https://lex.uz
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2023.
6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўриқлаш бош бошқармасининг фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, 20.02.2021й. ПҚ-4997-сон, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.08.2021й., 07/21/5235/0840-сон
7.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўриқлаш бош бошқармаси бўлинмалари томонидан қўриқланадиган объектлар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори, 21.11.2019й. 930-сон, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.08.2022 й., 09/22/438/0726-сон

**Ruziyev Rustam Djabbarovich,**
**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Fuqaroviy-huquqiy fanlar” kafedrasi professori, yu.f.d., professor**

# XUSUSIY MULK DAXLSIZLIGINI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ISLOHOTLAR KAFOLATLAYDI

Maqolada Yangi O‘zbekiston sari rivojlanish yo‘lida sharoitida mulk huquqi va xususiy mulk daxlsizligini konstitutsiyaviy huquqiy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: mulk huquqi, xususiy mulk daxlsizligi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, huquqiy kafolat, konstitutsiyaviy huquqiy islohotlar, mulk shakllari.

В статье освещены конституционно-правовые основы права собственности и неприкосновенности частной собственности в пути развития к Новому Узбекистану.

Ключевые слова: право собственности, неприкосновенность частной собственности, Конституция новой редакции, правовая гарантия, конституционно-правовые реформы, формы собственности.

The article highlights the constitutional and legal foundations of property rights and the inviolability of private property on the way to a new Uzbekistan

Key words: property rights, inviolability of private property, new edition of the constitution, legal guarantee, constitutional legal reforms, forms of ownership



“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”[1] doirasida ortga qaytmas tus olgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, samarali bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar salmog‘ini alohida qayd etish adolatdan bo‘ladi. Vaholanki, yangi O‘zbekistonning xalqchil siyosati – “inson-jamiyat-davlat” zamirida shakllantirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy-mafkuraviy taraqqiyot yo‘lining yorqin istiqbollarini ochib berish yangi jamiyatga mos ruhdagi huquqiy tizimni yaratishni taqozo etadi.

Shubhasiz, yangilanishlarning huquqiy kafolati sifatida, avvalambor, yuksak insonparvarlik g‘oyalarini o‘ziga singdirgan yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zero, yangi Konstitutsiya iqtisodiyotimizning manbai sifatida mulk va uning huquqiy asoslari, jamiyat va fuqarolar farovonligini ta’minlash, mamlakatimiz taraqqiyoti va iqtisodiy hayotida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishdek ulug‘ maqsadga xizmat qiladi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli strategiyalari, umuman, vatanimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozimligi”[2] xususidagi purma’no so‘zlarini eslash joiz.

Iqtisodiyotning samarali amal qilishi va xalq farovonligi o‘sishiga imkoniyat yaratuvchi muhim omil bo‘lgan mulkning milliy qonunchiligimizda turli shakllariga ruxsat berilganligini e’tirof etish lozim. Buning tasdig‘ini yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasida “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi” haqidagi qoida belgilab qo‘yilganligida ko‘rish mumkin.

E’tiborli jihati, davlat mulkning xilma-xil shakllari zamirida bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash orqali fuqarolar farovonligini oshirishni maqsad qilib qo‘yganligidir.

Jamiyatning iqtisodiy negizi undagi mavjud mulkchilik munosabatlariga



asoslanganligi nuqtai-nazaridan mulk iqtisodiy ma’noga ega. Qaysiki, kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga berilgan boyliklar har doim mulk bo‘lib kelgan. Mulk, birinchidan, kishining ashyoga nisbatan egalik his-tuyg‘usi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu ashyo xususida kishilar o‘rtasida vujudga keladigan munosabat hamdir. O‘z navbatida, mulkiy munosabatlar qonunlar bilan tartibga solinadi va ularning ta’siri ostida mulkiy huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy jihatdan qaraganda, moddiy va nomoddiy ko‘rinishdagi ne’matlardan iborat bo‘lgan mulkning muayyan sub’ektlarga tegishliligini mustahkamlovchi va uning yuridik holatini belgilovchi huquqiy me’yorlar yig‘indisini ifoda etadi.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi 12-bobining (65-68-moddalari) qoidalari taalluqli qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibga muvofiq mol-mulkning miqdorini chegaralamaydi. Demoqchimizki, ushbu normalar halol raqobat sharoitida iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini ta’minlagan holda qonuniy tadbirkorlik va mehnat qilish natijasida orttirilgan mol-mulkning hajmi, soni, miqdori cheklanmasligini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik ma’nodagi mulkning xususiy va ommaviy shakllari mavjud bo‘lib, o‘z navbatida, xususiy mulk yakka shaxsga tegishli mulk (fuqarolar mulki) va nodavlat yuridik shaxslar mulki ko‘rinishiga bo‘linadi. Ommaviy mulk tarkibiga esa O‘zbekiston Respublikasi mulki va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk) kiradi. Mulk shakllarining bunday turkumlanishida mulk sub’ekti maqomi va mol-mulk rejimining uzviy birligi asosiy mezon bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasi mulkning boshqa shakl va ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasida mulkning an’anaviy ikki shaklidan tashqari jamoa mulki, aralash mulk, boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi ham ko‘zda tutilgan. Har qanday hollarda ham davlat mulkning xilma-xil shakllarini rivojlantirish uchun ularning qonuniy tengligini ta’minlaydi va himoyasini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosini tashkil etuvchi mulk shakllari qatorida xususiy mulk qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritilgan har qanday narsalar bo‘lishi mumkin. Aniqroq aytganda, xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy mazmun-mohiyati shaxsning qonunga muvofiq miqdori va qiymati cheklanmagan tarzda qo‘lga kiritgan mulkka erkin, halol va qonunga zid bo‘lmagan holda egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqlaridan iborat. Fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining sub’ektlari hisoblanadi. Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ommaviy mulk respublika va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo‘lib, respublika mulkiga – yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika byudjetining mablag‘lari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari kiradi. Shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o‘quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular byudjet yoki davlatning o‘zga mablag‘lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo‘lsa va boshqa ayrim mol-mulklar ham respublika mulki bo‘lishi mumkin.

Respublika mulki – respublika byudjetiga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobidan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra boshqa tushumlar hisobidan tashkil etilib, qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartib va shartlar asosida xususiy mulk qilib berilishi mumkin. Respublika mulki bo‘lgan mol-mulkni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, tasarruf qilish huquqiga egadirlar.

Munitsipal mulk esa – davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy

byudjet mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta’limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mol-mulklardan iborat bo‘ladi. Ushbu mulk turi mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobidan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq, boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi. Munitsipal mulk bo‘lgan mol-mulkni, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar. O‘z navbatida, munitsipal mulk ob’ektlari ham xususiy mulk qilib berilishi mumkin.

Davlat jamiyatimizning iqtisodiy negizini tashkil etishda mulk shakllarining erkin sharoitini va mulkdorlar huquqlarini ta’minlash maqsadida iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos jihatlarini belgilab beradi. Bu jihatlar:

birinchidan, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi;

ikkinchidan, iste’molchilar huquqlari ustuvorligi;

uchinchidan, halol raqobat muhiti yaratilganligi;

to‘rtinchidan, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi;

beshinchidan, mulk shakllarining huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilganligida o‘z ifodasini topadi.

Ayni vaqtda, davlat yangi Konstitutsiya, qonunlar va ularning ijrosini ta’minlovchi mexanizmlar yordamida xilma-xil shakldagi mulk egalari va tadbirkorlik sub’ektlarining o‘z faoliyatlarini amalga oshirishlarida, avvalambor, iste’molchilar huquqlari ustunligi, ularning talab va takliflari iqtisodiy faoliyatni harakatga keltiruvchi, tartibga solib turuvchi jarayon ekanligini hisobga olib shart-sharoitlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining[3] 23-moddasida konstitutsiyaviy qoida asosida iste’molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash mexanizmlari belgilangan. Unga ko‘ra davlat Konstitutsiya va qonun hujjatlari orqali iste’molchilarning tovar sotib olish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va ulardan foydalanish chog‘idagi huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoyasini kafolatlaydi va amalga oshiradi.

Iste’molchilar huquqlarining ustunligi ularning ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi, sotuvchidan farqli ravishda foyda olish maqsadini ko‘zlamasligi, asosan, shaxsiy iste’mol yoki boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar sotib olishi, ish va xizmatga buyurtma berishida hamda ularning sifat va xavfsizligi kafolatlanganligini, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarini qo‘yishda aks etadi.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida xususiy mulkning barcha mulk shakllari qatorida teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya etilganligi uning 65-moddasi 3-qismida “Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkidan mahrum etilishi mumkin”, deb belgilab qo‘yilgan. Endilikda, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda sodir bo‘layotgan yangilanishlar talqinida xususiy mulk nafaqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari, balki boshqa davlatlarning fuqarolari, yuridik shaxslari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ham boyligi hamda moddiy mustaqilligi, shuningdek ma’naviy erkinligi manbai sifatida baholandi va e’tirof etildi.

Yangi Konstitutsiyada, birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlari uyg‘unligida iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimoti hamda investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti yaratilganligi, ikkinchidan, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi ta’minlanganligi, uchinchidan, tadbirkorlikda halol raqobat kafolatlanganligi va monopol faoliyatga yo‘l qo‘yilmasligi kabi tamoyillari asosida xususiy mulk daxlsizligi va himoyasining mustahkam huquqiy tizimi yaratildi.

Xususiy mulkka nisbatan belgilangan “daxlsizlik va davlat himoyasida bo‘lishlik” xususiy mulk huquqini himoya qilish choralari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Birinchi navbatda, “daxlsizlik” deganda, shaxsning o‘ziga yoki muayyan huquqlariga nisbatan qonunga zid bo‘lgan xatti-harakatlar bilan u yoki bu darajada ta’sir o‘tkazishni taqiqlovchi qonuniy choralar majmui nazarda tutiladi. Ikkinchidan, “daxlsizlik” – huquq sub’ektiga tegishli va uning vakolatlari ostida hamda xo‘jalik hukmronligidagi ob’ektning har qanday huquqbuzarliklardan holi bo‘lishini qonun bilan ta’minlanganligini ham anglatadi. Konstitutsiyaning 65-moddasida



belgilangan xususiy mulkning daxlsizligi ham, mulkdorga tegishli bo‘lgan mol-mulkka nisbatan huquqlarning har qanday buzilishi va u bilan bog‘liq manfaatlarga har qanday putur yetkazilishining taqiqlanishini hamda xususiy mulk huquqi u kimga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar faqatgina qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagi bekor qilinishi mumkinligi qoidasi ham xususiy mulk daxlsizligining mazmunini ifodalaydi.

Yangi Konstitutsiyaning mazkur normasini hayotga bevosita joriy etishning moddiy va protsessual mexanizmlari sifatida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik, fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual kodekslari tegishli qoidalari, mulk va mulkchilikka oid bir qator qonun hujjatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”[4] gi va boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida 2021 yil 14 iyulda qabul qilingan O‘RQ-701 sonli “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-tamoyillari to‘g‘risida”[5]gi qonunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 avgustdagi PF-198-son “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘yilmaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6]gi Farmoni muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Barcha mulk shakllarining teng huquqliligi hamda mulk daxlsizligi tamoyili oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasi 2 va 3-qismlarida bu boradagi normalar mustahkamlab qo‘yilgan. Darhaqiqat, mazkur normalar asosiy maqsadi – mulk shakllarining tengligi, mulk daxlsizligini ta’minlashdir. Garchi, yangi Konstitutsiyaning ayrim normalari maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulk huquqini himoya qilishga yoki mulk daxlsizligini ta’minlashga qaratilmagan bo‘lsada, ularning amalga oshirilishi natijasida shaxsning mulk huquqlari to‘la-to‘kis ta’minlanadi. Buning yaqqol misoli sifatida yangi Konstitutsiya 20-moddasining 2-3-qismlarini (“inson huquqlari va erkinliklarining amal qilishi”, “boshqa shaxslar huquq va erkinliklariga putur yetkazmaslikning shartligi”), 41-moddasi 1-qismini (“har bir shaxs mulkdor bo‘lish huquqiga egaligi”) va 47-moddasi 1-qismini (“har kim uy joyli bo‘lish huquqiga egaligi”) keltirib o‘tish o‘rinli. Zero, har uchta holatda ham mulk daxlsizligi elementlari ifoda

etilgan. Demak, aytish mumkinki, yangi Konstitutsiyaning 65-68-moddalarigina emas, balki 20, 41, 47-moddalari normalarida ham mulk daxlsizligining mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha sub’ektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini tiyishlari va saqlashlaridan iborat bo‘lib, mulk davlat himoyasidadir. Mulkdor o‘zining mulk huquqi kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzilishini bartaraf etishni, shuningdek buzilgan huquqlarini tiklashni talab qilish huquqiga ega. Mulk daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy normalar joriy qonunchiligimizda, jumladan, fuqaroviy-huquqiy, ma’muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy normalarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ushbu tamoyilning ijrosida amaliy ahamiyatga ega.

Mulkdor mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina, ya’ni mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori yoki davlat hokimiyati organi qarori asosida mol-mulkni olib qo‘yish (sotib olish) yo‘li bilan (masalan, musodara, rekvizitsiya), shuningdek mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan (masalan, natsionalizatsiya) mahrum etilishi mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonunlar yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining iqtisodiy negizlarini belgilab beradi, davlat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosini tashkil qiluvchi xilma-xil mulk shakllari, jumladan xususiy mulk daxlsizligini kafolatlaydi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони // «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси» www.lex.uz.
2. Ўзбекистон янгиликлари. Расмий сайт www.gazeta.uz/uz.
3. ЎР ҚММБ, 22.02.2024й., 03/24/9110142-сон.
4. ЎР ҚММБ, 30.06.2022й., 03/22/782/0576-сон.
5. ЎР ҚММБ, 25.05.2022й., 03/22/771/0448-сон.
6. ЎР ҚММБ, 25.08.2022й., 06/22/198/0770-сон.

**Raxmatov Laziz Nurpillaevich,**
Jamoat xavfsizligi universiteti Umumiy taktika va operativ san'at kafedrasi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik;

**Abdullayev Akbarjon Azamovich,**
Jamoat xavfsizligi universiteti Umumiy taktika va operativ san'at kafedrasi katta o'qituvchisi, podpolkovnik

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA QUROLLI KUCHLAR SALOHIYATINI OSHIRISH MASALALARI




Maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qurolli kuchlar va ularning salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston armiyasining asosiy vazifasi mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini ta'minlash ekanligi belgilangan. Qurolli kuchlarning salohiyatini oshirish, zamonaviy harbiy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va harbiy tayyorgarlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Maqolada bundan tashqari, qurolli kuchlar va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, jamiyatda armiyaga bo'lgan ishonchni oshirish, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan huquqiy va amaliy tadbirlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qurolli kuchlar, xavfsizlik, armiya salohiyati, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, harbiy tayyorgarlik, davlat xavfsizligi, suverenitet, huquqiy asoslar, jamiyat, xavfsizlik siyosati.

В статье рассматриваются вопросы, связанные с вооружёнными силами Республики Узбекистан, их ролью и компетенцией в обеспечении национальной безопасности, а также с необходимостью их укрепления в рамках Конституции страны. Основной задачей вооружённых сил Узбекистана является защита суверенитета и безопасности государства. Укрепление потенциала вооружённых сил, использование современных военных технологий, развитие международного сотрудничества и повышение боевой готовности армии являются важнейшими аспектами государственной политики. В статье также обсуждаются вопросы взаимодействия вооружённых сил с государственными органами, повышение доверия общества к армии и юридические, а также практические меры по обеспечению безопасности.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, вооружённые силы, безопасность, армейский потенциал, современные технологии, международное сотрудничество, военная подготовка, государственная безопасность, суверенитет, правовые основы, общество, безопасность.

The article examines issues related to the armed forces of the Republic of Uzbekistan, their role and competence in ensuring national security, as well as the need to strengthen them within the framework of the Constitution of the country. The main task of the armed forces of Uzbekistan is to protect the sovereignty and security of the state. Strengthening the potential of the armed forces, the use of modern military technologies, the development of international cooperation and increasing the combat readiness of the army are the most important aspects of state policy. The article also discusses the interaction of the armed forces with government agencies, increasing public confidence in the army and legal and practical measures to ensure security.

Keywords: Constitution of the Republic of Uzbekistan, armed forces, security, army potential, modern technologies, international cooperation, military training, state security, sovereignty, legal framework, society, security.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning huquqiy asosi va davlat boshqaruvi tizimining fundamental qoidalarini belgilaydi. Ushbu hujjatda davlatning barcha institutlari, jumladan, qurolli kuchlar va ularning salohiyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining qudratli qurolli kuchlari mamlakat xavfsizligini ta’minlash, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashish, milliy manfaatlarni himoya qilish va tinchlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu hujjatda qurolli kuchlarning rolini va ularning vazifalarini belgilash, mamlakat xavfsizligini ta’minlash va milliy manfaatlarni himoya qilishdagi o‘rni juda muhimdir. Qurolli kuchlarning salohiyatini oshirish, O‘zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va harbiy xavfsizligini mustahkamlash uchun muhim omildir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qurolli kuchlar ta’sisi, vazifalari va ularning faoliyatidagi prinsiplar aniq belgilangan. Konstitutsiyaning 153-moddasida O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega ekanligi ta’kidlangan. Qurolli kuchlar o‘z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlar asosida amalga oshiradi.

152-moddada esa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi belgilangan. Har qanday tashqi agressiya yoki ichki buzilishlar holatida qurolli kuchlar, avvalambor, konstitutsiyaga asoslangan huquqiy normalarga muvofiq harakat qilishi kerak.

Xavfsizlik shart-sharoitlarini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasining qurolli kuchlari salohiyatini oshirish masalasi doimiy ravishda kun tartibida turgan ahamiyatga ega. Bu masala mamlakatning global va mintaqaviy xavfsizlik tizimlariga integratsiyalashish, zamonaviy harbiy texnologiyalardan foydalanish, jangovar-xizmat faoliyati va harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, shuningdek, jahon miqyosidagi harbiy xavf-xatarlar bilan kurashish uchun zarur.

Konstitutsiyaga asosan, O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari faoliyatini davlat va jamiyat nazorat qiladi. Milliy xavfsizlikni ta’minlash va qurolli kuchlarning faoliyatini demokratik usulda kuzatish, jamiyatga javobgar bo‘lgan armiyani shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga, qurolli kuchlarning salohiyatini oshirishda, ularning davlat siyosatiga, inson huquqlari va erkinliklariga va xalqning manfaatlariga zid bo‘lmagan holda, har qanday kuchlarning foydalanilishini ta’minlash lozim.

Konstitutsiyaning 109-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi. Prezident mamlakat xavfsizligi va armiyaning salohiyatini oshirish borasida strategik yo‘nalishlarni belgilaydi. Shuningdek, parlament va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham qurolli kuchlarning faoliyatini demokratik nazorat qilishi lozim.

Qurolli kuchlarning salohiyatini oshirish, mamlakat xavfsizligini ta’minlash uchun juda muhimdir. Zamonaviy xavfsizlik va harbiy strategiyalarda kiberxavfsizlik, texnologik inqilob va iqtisodiy muammolar hamda global tahdidlar masalalariga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shularni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining qurolli kuchlari salohiyatini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan:

zamonaviy texnika va texnologiyalarning joriy qilinishi. Modernizatsiya va harbiy qurollarning yangi namunalari O‘zbekiston armiyasining samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi. Harbiy texnika va qurol-yarog‘ning zamonaviy turlari bilan ta’minlash armiyaning ma’nan va jismonan mustahkamlashini nazarda tutadi;

xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Qurolli kuchlar, mamlakat xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarga qarshi global va mintaqaviy hamkorlikda qatnashish va birgalikda harakat qilish uchun xalqaro miqyosdagi harbiy hamkorlikni rivojlantirish zarur. Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda O‘zbekistonning qatnashishi, qo‘shni davlatlar bilan harbiy va diplomatik hamkorlikni mustahkamlash maqsadida qurolli kuchlarning salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyodagi xavfsizlikni mustahkamlashga katta e’tibor qaratmoqda;

harbiy ta’limni rivojlantirish. Qurolli kuchlarning harbiy xizmtchilari zamonaviy bilim va malakaga ega bo‘lishlari muhim.

Yangilangan ta’lim dasturlari, taktik-strategik treninglar orqali harbiylarning malakalarini oshirish va ularni zamonaviy harbiy mojarolarga moslashtirish zarur.

Qurolli kuchlarning samarali faoliyati uchun, ularning davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan integratsiyalashgan holda ish olib borishini ta’minlash muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari hamda ichki ishlar, xavfsizlik va mudofaa sohalaridagi boshqa davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va muvofiqlashtirish jarayonlari xavfsizlikni saqlash va yordamlashish maqsadida ishlaydi.

Shuningdek, davlat organlari hamda qurolli kuchlar o‘rtasidagi hamkorlik ichki va tashqi xavflarga tezkor va samarali javob berishga, armiyaning faoliyatini, xususan, yo‘nalish va tashkiliy ishlarini muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Konstitutsiyada qurolli kuchlarning faoliyati faqat mamlakat xavfsizligini ta’minlash bilan chegaralanmaydi, balki ularning jamiyatdagi roli va fuqarolarga nisbatan majburiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qurolli kuchlar jamiyatning tinchligi va barqarorligini ta’minlash uchun o‘zlarining vazifalarini ado etishga majbur. Ular ichki nizolarni, tahdidlarni va urushlarning oldini olishga qaratilgan choralar ko‘rishda ishtirok etadi. Harbiy xizmatdagi shaxslar o‘zlarining vazifalarini Konstitutsiya va qonunlar asosida bajarishga majbur.

Shuningdek, harbiy xizmatdagi shaxslarning fuqarolik jamiyatiga integratsiyasi, ularning ijtimoiy, ma’naviy va psixologik holatlarini yaxshilash uchun davlat tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu, armiyaga bo‘lgan ishonchni oshirish va qurolli kuchlarning jamiyatga munosib yordam ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarining har qanday tahdidlarga qarshi kurashishi faqat davlat organlarining va maxsus xizmatlarning birgalikda harakatlari orqali samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi, jumladan, tinchlikni saqlash va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik mamlakat xavfsizligini oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mamlakatning qudratli qurolli kuchlarini shakllantirish va ularning salohiyatini oshirishda asosiy huquqiy asosdir. Har qanday davlatning xavfsizligi, suvereniteti va milliy manfaatlarni himoya qilishda qurolli kuchlar muhim rol o‘ynaydi. Konstitutsiyaning prinsiplariga asosan, O‘zbekiston armiyasi o‘z faoliyatini zamonaviy talablarga mos holda amalga oshiradi, harbiy bilim va malaka sohasidagi uzluksiz rivojlanish, harbiy sohalardagi hamkorlik va global xavfsizlik siyosatiga moslashuvchi tizimlarning yo‘lga qo‘yilishi davlat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyada qurolli kuchlarning salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini demokratik asosda nazorat qilishga oid aniq prinsiplar belgilangan. Bu, o‘z navbatida, davlatning xavfsizligini mustahkamlash, milliy manfaatlarni himoya qilish va xalq tinchligini saqlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qurolli kuchlarning mamlakat xavfsizligini ta’minlashdagi muhim rolini va ularning faoliyatini qonun bilan tartibga solishni nazarda tutadi. Armiyaning salohiyatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, harbiy ta’limni yaxshilash zarur. Qurolli kuchlar va davlat organlari o‘rtasidagi samarali hamkorlik, jamiyatda armiyaga bo‘lgan ishonchni oshirish va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha aniq yo‘nalishlarning belgilanishi mamlakatning taraqqiyoti va xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi.
3. Sh.M. Mirziyoev. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishidagi nutqi. Vatanparvar, 2018 yil 13 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.

**Azamjonov Ulug‘bek Usmonjon o‘g‘li,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, katta leytenant

# YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA - XALQCHIL DAVLAT, BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVON HAYOT ASOSI

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, unda belgilangan asosiy tamoyillar va ijtimoiy davlat qurilishidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Konstitutsiyadagi inson huquqlari, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan yangi normalar, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, shuningdek, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini kafolatlovchi moddalar haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, ijtimoiy davlat, inson huquqlari, yoshlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, tenglik, adolat, nogironlik, yangilanish.

В статье рассматривается суть и значение обновленной Конституции Республики Узбекистан, её основные принципы и роль в построении социального государства. Подробно освещены новые нормы, основанные на принципах прав человека, социальной справедливости и равенства, изменения в сферах образования и здравоохранения, а также положения, гарантирующие права молодежи и лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: Конституция, социальное государство, права человека, молодёжь, образование, здравоохранение, равенство, справедливость, инвалидность, обновление.

The article discusses the essence and significance of the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan, its fundamental principles, and its role in building a social state. It elaborates on new provisions based on human rights, social justice, and equality, as well as changes in education and healthcare, and guarantees for the rights of youth and people with disabilities.

Keywords: Constitution, social state, human rights, youth, education, healthcare, equality, justice, disability, renewal.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 7-dekabr kunidagi Konstitutsiyamizning 31-yilligiga bag‘ishlangan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigida “Hech shubhasiz, tom ma’noda xalqchil qomus bo‘lgan Asosiy qonunimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning besh ustuni, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi. Biz o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga yetishda Asosiy qonunimizda muhrlangan barcha qoida va tamoyillarni amalga oshirmoqdamiz. Jamiyatimizda Konstitutsiya va qonun ustunligini ta’minlash, davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda yo‘lga qo‘yishning ahamiyatini chuqur anglagan holda, bu borada tizimli ishlarni boshladik.

Xususan, Asosiy qonunimizdan kelib chiqib, amaldagi qonunlarimizni yangi konstitutsiyaviy normalar bilan uyg‘unlashtirish yuzasidan jadal ishlar olib borilmoqda.” degan nutqlari amaldagi qonunchilik tizimimizdagi islohotlarning yuksak natijasi va tayanchi Konstitutsiyamiz ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson va davlatning huquqiy holatini belgilashda inson huquqlari ustuvorligi, ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslanuvchi tamomila yangi konsepsiyaga tayangan bo‘lib, unda ilk bor inson huquqlari ustuvorligi, inson qadri tushunchalari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, yurtimiz mustaqil taraqqiyot yo‘lida dunyo jamoatchiligi tan olgan olam-shumul yutuq va marralarni zabt etdi. Milliy iqtisodiyotimiz izchil rivojlanmoqda, uning barqaror o‘sish sur’atlari, aholi farovonligi yil sayin yuksalib bormoqda. Bir so‘z bilan aytganda, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro‘-e’tiborining tobora yuksalib borayotgani zamirida, eng avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va uning insonparvarlik g‘oyalarini o‘zida to‘la mujassam etgan me’yorlari yotibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konstitutsiyamiz haqidagi: “Konstitutsiya har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularni huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim”, - degan so‘zlari bugun dasturil amal qilib olindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekiston - suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik - davlat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Tariximizda ilk bora O‘zbekiston - ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Ya’ni, insonga e’tibor hamda g‘amxo‘rlik - davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamldi.

Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlarni oldi. Umuman, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobarga ko‘paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik



darajasini oshiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yangi davrni boshlab berishiga ishonch bildiramiz. Muhtaram Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida, Referendum orqali amalga oshirildi, bu tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi - haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘ldi. Haqiqatda ham, Konstitutsiyaviy qonunda belgilangan normalar, avvalo, aholi salomatligi va ijtimoiy adolat himoyasiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Jumladan, yangi Konstitutsiyamizning 40-moddasida sog‘liqni saqlashga oid quyidagicha normalar qo‘shildi:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning qonunda belgilangan hamda tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham o‘z ichiga oladigan kafolatlangan hajmini bepul olishga haqli.

- Davlat sog‘liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlarini rivojlantirish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash, tibbiy sug‘urtaning turli shakllarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha zarur choralar ko‘radi.

- Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va himoya qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

- Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini himoya qilish va tiklash, uni ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish bo‘yicha zarur choralar ko‘radi.

Konstitutsiyaga 401-modda ham qo‘shildi. Unda “Har kim sog‘lom va qulay atrof-muhitga, uning holati haqidagi haqqoniy axborotga ega bo‘lish hamda o‘z sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga ekologik huquqbuzarlik tufayli yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishi huquqiga ega”, - deb belgilangan. Bulardan esa yangilangan Konstitutsiyada inson qadri uchun g‘oyasi mujassam ekanligini ko‘rish mumkin. Negaki, inson avvalo sog‘lom bo‘lsa va sog‘lom muhitda yashasagina jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi va faol qatlamning to‘laqonli ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Yangilangan Konstitutsiyada sog‘liqni saqlash sohasi rivojining yangi bosqichga ko‘tarilish kafolatlarini ham ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra, joriy yilda “Kafolatlangan xizmatlar paketi” qayta ko‘rib chiqilib, unda 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to‘liq qamrab olindi. Ko‘p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha birlamchi bo‘g‘indagi bepul analiz turlari - 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar - 10 tadan 20 tagacha, dorilar - 64 tadan 90 taga oshirildi.

Yangilangan Konstitutsiyada yana bir muhim soha - ta’lim tizimini takomillashtirish ham belgilangan. Unga ko‘ra, ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirildi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi. Ijtimoiy davlatga xos yondashuvlar ta’lim sohasiga oid ko‘plab modda va normalarda ham o‘z ifodasini topdi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi. Ma’lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017-yilgacha oliygohlarda o‘qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o‘zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Magistratura uchun esa 5 baravar ko‘paydi. Bularning ta’lim sifatini yuksalishida ahamiyati kattadir.

O‘zbekiston - yoshlar mamlakatidir. Shu bois, yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kamolotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Eng avvolo, bu sohadagi ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari takomillashtirilib borilmoqda. Yangi Qomusimizning 79-moddasida: “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishi uchun, ularni ta’lim olishiga, sog‘lig‘ini saqlashda, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, - deyilganining zamirida yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste’dodini qo‘llab-quvatlash turganligiga amin bo‘lamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari kafolati mustahkamlanayotgani alohida e’tiborlidir. Jumladan, 50-modda “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi”, - degan norma bilan to‘ldirildi. Bu alohida ta’lim ol¬ishga muhtoj shaxslarning inkluziv ta’lim olishini

davlat doimiy kafolatlash majburiyatini o‘z zimmasiga olishini anglatadi. Nogironligi bor bola va yoshlarga o‘z tengdoshlari bi¬lan bir xil ta’lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun, bunday imkoniyatlar inkluziv ta’lim sifatida Konstitutsiyaga kiritilmoqda. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Bundan ko‘zlangan maqsad esa aniq - aholiningyordamgamuhtojqatlaminiqo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, himoya qilish, ta’lim muassasalari sharoitlarini imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar manfaatini hisobga olgan holda yaxshilash orqali nogironligi bo‘lganlar uchun ta’lim va kasbiy-texnik tayyorgarlikdan teng foydalanish imkoniyati hamda barcha uchun xavfsiz, samarali o‘qitish muhitini yara-tishdir.

Shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqitaqdimetilmoqda.Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv jarayonidagi mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Jumladan, keyingi yillarda ko‘plab nodavlat oliy o‘quv yurtlari ochildi, xorijiy universitetlar filiallari soni ortmoqda, 41 ta davlat oliy o‘quv yurtiga akademik va moli- yaviy mustaqillik berildi.

Bu kabi o‘zgarishlarni kiritishdan maqsad davlatimizni - raqobatbardosh, zamonaviy, eng ilg‘or davlatga aylantirish, bu ulug‘ marra sari birdam bo‘lib intilishimiz kerak. Biz qurayotgan jamiyatda inson omili muhim o‘rin tutadi, bu esa inson manfaatlarining ustuvorligiga asoslanadi.

Yangilangan Konstitutsiya “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga asoslanadi, chunki unda barcha toifalar - yoshlar, ayollar, nogironlar, o‘qituvchilar va ijtimoiy himoyaga muhtoj turli qatlamlarning huquq va manfaatlari o‘z ifodasini topgani bilan amaliy ahamiyatga ega.

**◄ Iqtiboslar/Чокки/References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining yangi taxirdagi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son)
3. Qonunchilik milliy ma’lumotlar bazasi lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining eski taxirdagi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 08.12.1992y.,)
5. Milliy saylov tizimi: demokratik islohotlarning yangi davri” maqola. Zayniddin Nizamxodjaev, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi, O‘zbekiston Qahramoni
6. Akmal Saidov, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari axborotnomasi
7. https://nsp.gov.uz
8. https://president.uz
9. https://kun.uz

**Jo‘rayev Javlon**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, kapitan

**Uralov Sardor Obloqul o‘g‘li**
Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi, kapitan

# TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV JARAYONIGA JALB ETILGAN SHAXSLARNING PROTSESSUAL MAQOMINI MUSTAHKAMLASH

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining «Inson qadri uchun» g‘oyasini milliy qonunchilikka integratsiya qilish jarayoni tahlil qilingan. Unda tergovga qadar tekshiruv jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, gumon qilinuvchi, guvoh va jabrlanuvchining protsessual maqomini belgilash zarurati yoritilgan. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruvda shaxslarning himoyalanish huquqlarini ta’minlashga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: tergov, konstitutsiya, huquq, himoya, erkinlik, jinoyat, huquqiy maqom, qonunchilik, O‘zbekiston, islohotlar.

В статье анализируется процесс интеграции идеи «Ценность человека» новой Конституции Республики Узбекистан в национальное законодательство. Освещена необходимость гарантирования прав и свобод граждан в ходе доследственной проверки, а также определения процессуального статуса подозреваемого, свидетеля и потерпевшего. В работе предложены меры по обеспечению права на защиту лиц, участвующих в доследственной проверке.

Ключевые слова: доследственная проверка, Конституция, права, защита, свобода, преступление, правовой статус, законодательство, Узбекистан, реформы.

The article analyzes the integration of the «Value of Human Dignity» principle from Uzbekistan’s new Constitution into national legislation. It highlights the need to guarantee citizens’ rights and freedoms during the pre-investigation process and to define the procedural status of suspects, witnesses, and victims. Suggestions to strengthen legal protection during pre-investigation proceedings are provided.

Keywords: Investigation, constitution, rights, protection, freedom, crime, legal status, legislation, Uzbekistan, reforms.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, «Inson qadri uchun» g‘oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan «Inson-jamiyat-davlat» degan yondoshuv O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan.

Yangi Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar o‘z navbatida milliy qonunchilik tizimida o‘z ifodasini topishi, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida tergovga qadar tekshiruv bosqichida jalb qilingan shaxslarni huquqiy maqomini mustahkamlash bilan bog‘liq normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tergovga qadar tekshiruv serqirrali tushuncha bo‘lib, uni amalga oshirish jarayonida jinoyat ishini qo‘zg‘atish, uni qo‘zg‘atishni rad etish masalalari hal etiladi. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv – to‘plangan materiallar yuzasidan jinoiy qilmish mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlashga yo‘naltirilgan tergov harakatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi bo‘lib hisoblanadi. U dastlab jinoyat-protsessual institut sifatida namoyon bo‘lib, ya’ni jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi haqidagi masalaning yechilishi tartibini belgilovchi protsessual me’yorlar yig‘indisini tashkil qiladi. Tergovga qadar tekshiruv bosqichidagi protsesual faoliyat JPKda belgilab qo‘yilgan mansabdor shaxs (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror)lar tomonidan amalga oshiriladi hamda mazkur jarayon belgilangan sharoitlarda va maxsus protsessual shakllarda yuritiladi.

Amaliyotimizda tergovga qadar tekshiruv natijasida to‘plangan materiallar yuzasidan jinoiy hatti - harakat (yoki harakatsizlik) yoki qilmishning mavjudligi, mavjud emasligini aniqlashga yo‘naltirilgan, surishtiruv yoki tergov harakatlarini amalga oshirishda dastlabki huquqiy asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Tergovga qadar tekshiruv davrida protsess ishtirokchilarining biror-bir maqomi mavjud emasligi, jumladan kelgusida gumon qilinuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo‘lgan shaxsning, guvohning yoki jabrlanuvchi tarafning maqomi mavjud emasligi, ularning tergovga qadar tekshiruv vaqtida ruhsat berilgan tergov harakatlari davomida o‘z manfaatlarini himoya qilishda to‘sqinlik keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruvda ishtirokchilarning himoya huquqidan foydalana olmasliklari, biror-bir maqomi e’tirof etilmagan, unga nisbatan huquq va majburiyatlar aks etmagan ishtirokchining bunday huquqlarini ta’minlash borasida qoidalarning o‘zi mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Sud tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish, jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirishga oid qonun osti hujjatlarida belgilagan vazifalariga muvofiq, jinoyat hamda jinoyat - protsessual qonunchiligidagi mavjud normalarni qayta ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish kabi talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu qonunchilik institutini isloh qilish lozimligini taqozo qiladi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishida aynan 87-maqsad, “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish” ko‘rsatib o‘tilgan. Unda “tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini aniqlashtirish, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvoh huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishga ruhsat berish” kabi ustuvor maqsadlar belgilangan bo‘lib, ularning bajarilishi mamlakatimizdagi har bir shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish bilan bog‘liq amaliyotdagi muammoli holatlardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasi (Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanish huquqi bilan ta’minlash)da gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyalanish huquqiga ega ekanligi, himoyalanish huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va

sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o‘ziga qo‘yilgan ayblovdan himoyalanish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish majburiyati bilan ta’minlanishi ifoda etilgan. Ammo, O‘zbekiston Respublikasining «Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida»gi Qonunining 18-moddasida Ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlar ushbu Qonunda belgilangan huquqlardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi uchun nazarda tutilgan huquqlarga ega bo‘lishi ifoda etilgan bo‘lib, bugungi kunda bevosita tergovga qadar tekshiruv jarayonidan boshlab ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan himoyachi ta’minlanishi yo‘lga qo‘yilgan. Lekin bugungi kunga tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxslarning himoyalanish huquqi Jinoyat-protsessual kodeksida o‘z aksini topmagan.

Fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga berilayotgan e’tibor sifatida O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi 29-moddasida «Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega» degan mazmunda konstitutsiyaviy norma belgilangan bo‘lib, bu har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida yuridik yordam olishi mumkinligini belgilangan va bu norma jinoyat protsessual kodeksida o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevral kunidagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi»ning 17-maqsadi: «Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish» deb nomlanib unda «Sudga qadar ish yuritishning barcha bosqichida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish» ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar belgilangan bo‘lib, jumladan:

1. Tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini aniqlashtirish, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvoh huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash;

2. Tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishga ruxsat berish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlash bo‘yicha topshiriqlar belgilangan.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxs huquq va erkinliklarining samarali ta’minlanishiga erishish maqsadida ushbu jarayonda ishtirok etayotgan, ya’ni tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash hamda ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan omillarni inobatga olib, ularning barchasini huquqiy yechimi sifatida quyidagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 47-moddasiga o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq. Jumladan,

“47-modda. Gumon qilinuvchi

Gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor bo‘lsa-da, bu ma’lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo‘lmagan shaxsdir.

Shaxs:

1) o‘ziga nisbatan tergovga qadar tekshiruv boshlangan;

2) jinoyat sodir etishda gumon qilinib, ushbu Kodeksning 221-moddasida belgilangan tartibida ushlangan;

3) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan jinoyat



ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab gumon qilinuvchi deb hisoblanadi.”

Uchinchidan, tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxs huquq va erkinliklarining samarali ta’minlanishiga erishish maqsadida ushbu jarayonda ishtirok etayotgan, ya’ni tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash hamda ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“48-modda. Gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari

(birinchi qism) Gumon qilinuvchi: o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; jinoyat protsessining har qanday bosqichida o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish, ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish;

(ikkinchi qism) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to‘g‘risidagi, amnistiya aktini qo‘llash haqidagi ishlar bo‘yicha sud majlislarida ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi: tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi, tergovga qadar tekshiruvda, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi; o‘ziga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasidan kelib chiqadigan talablarni bajarishi; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish to‘g‘risidagi hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ekspertiza o‘tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi qarorlari va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to‘sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shart.”

Ushbu normalarni jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilishi tergovga qadar tekshiruv davrida shaxs huquq va erkinliklarini samarali ta’minlash bilan birga tergovga qadar tekshiruv faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar va organlar zimmasiga tegishli majburiyatlarni yuklatilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar kelib tushganda o‘tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv davrida shaxs malakali yuridik yordam olishi va advokat yordamidan foydalanishini ta’minlash, tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash hamda ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish Yangi Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar o‘z navbatida milliy qonunchilik tizimida o‘z ifodasini topishiga, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va ichki idoraviy hujjatlarda harbiy xizmatchilarga nisbatan tergovga qadar tekshiruv davrida ularning huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

◄ **Iqtiboslar/Чокки/References**

1. Yangi taxrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi F-60-son «2022-2026-yillarga

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevral kunidagi

PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi» // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

5. Tursunov B.R. Rustambayev M.X. Mirazov D.M. Fayziyev Sh.F. Tergovga qadar tekshiruv. – Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2019. 357 B.

6. Mirazov D.M. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish asoslari, tartibi va xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 75 b.

7. Jinoyat-protsessual huquqi [Matn]: darslik. - Toshkent: Complex Print, 2020. – 679 b.

**Vaxidov Fazliddin Raufovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

# OLIY HARBIY VA HARBIYLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMIGA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI



Mazkur maqolada O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar va yangiliklar yoritilgan. Jumladan, kadrlar tayyorlash tizimi xalqaro standartlar asosida qayta tashkil etilgani, Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya uchun yangi ta’lim dasturlari joriy etilgani ta’kidlangan. Jamoat xavfsizligi universitetining tashkil etilishi, uning maqsadlari va o‘quv jarayonlari xususida ham batafsil ma’lumot berilgan. Universitetda harbiy va fuqaro kadrlarni maqsadli tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va jahon standartlariga mos ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, islohotlar, kadrlar tayyorlash, ta’lim, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, universitet, harbiy ta’lim, qonunchilik, xavfsizlik.

В статье освещены реформы и нововведения в системе обеспечения общественной безопасности и правопорядка в Узбекистане. Рассматриваются изменения в подготовке кадров на основе международных стандартов, внедрение новых образовательных программ для Министерства внутренних дел и Национальной гвардии. Особое внимание уделено созданию Университета общественной безопасности, его целям и учебным процессам. Подчёркивается значимость целевой подготовки кадров, развития научных исследований и внедрения системы образования, соответствующей мировым стандартам.

Ключевие слова: общественная безопасность, реформы, подготовка кадров, образование, МВД, Национальная гвардия, университет, военное обучение, законодательство, безопасность.

The article highlights reforms and innovations in Uzbekistan’s public safety and law enforcement systems. It discusses the restructuring of personnel training based on international standards, the introduction of new educational programs for the Ministry of Internal Affairs and National Guard, and the establishment of the Public Safety University. The article emphasizes the importance of targeted training of specialists, development of scientific research, and implementation of an education system aligned with global standards.

Key words: public safety, reforms, personnel training, education, Ministry of Internal Affairs, National Guard, university, military education, legislation, security.

So‘nggi yillarda dunyoda kechayotgan geosiysiy voqealar va tahdidlarning avj olishi jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini har tomonlama takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu borada xalqaro tajribalarni faol o‘rgangan holda mavjud qonunchilik hujjatlarini takomilashtirish, shuningdek sohadagi kadrlar tayyorlash tizimini zamon shart-sharoitlari ruhida tarbiyalash va ta’lim berish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash tizimi tubdan isloh qilinib, sohadagi huquqiy asoslar mustahkamlandi va sohadagi tub islohotlar natijasida yangicha tartib-taomillar yuzaga keldi va tobora mustahkamlanib bormoqda.

Avvalo ta’kidlash joizki shu vaqtga qadar “jamoat xavfsizligi”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash” tushunchalariga turli manba va adabiyotlarda turlicha ta’rif va tavsiflar berilib, uning huquqiy asoslari aniq belgilab qo‘yilmagan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi”da ushbu iboralarga huquqiy ta’riflar berildi[1].

Mazkur hujjatda jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chaqarilishi ta’minlaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash esa davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi

yaxlit tizimdir.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqadiki aynan mazkur sohada tayyorlanadigan professional kadrlar keltirilgan talablarga to‘laqonli mos kelishi va zamonaviy shart-sharoitlarga tayyor bo‘lishi lozim bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda birinchi navbatda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga professional kadrlar tayyorlanadigan oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatida tub islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga[2] muvofiq, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2017-yil 16-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [3]. Mazkur hujjatga asosan 8 ta alohida yo‘nalishlar bo‘yicha IIV zimmasiga muhim vazifalar yuklatilib, xususan, xodimlarni, shu jumladan ularni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o‘qitish va maxsus kasbiy tayyorlash, hududiy ichki ishlar organlariga bevosita chiqishni va tergov-tezkor tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etishni nazarda tutgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishni o‘z ichiga olgan yangilangan ta’lim standartlar va o‘quv dasturlarni ishlab chiqish va kiritish hamda idoraviy ta’lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini amaliyot ehtiyojini hamda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish istiqbollarini inobatga olgan holda tizimli ravishda maqbullashtirishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir kunda, ya’ni 2021-yil 15-aprelda qabul qilingan tarixiy qarorlari jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlash sohasida tub o‘zgarishlardan biri bo‘ldi.

Xususan, ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2021-yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori asosida 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etildi [4].

Ma’lumki mazkur akademiya bundan o‘ttiz yil ilgari tashkil etilgan bo‘lib, shundan buyon birinchi marta akademiyadagi ta’lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratilib, birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o‘qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshirila boshlandi. Shu bilan birga mazkur harbiylashtirilgan ta’lim muassasasida bakalavriat dasturi bo‘yicha o‘qitish kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida tashkil etilib, ularga o‘qishga qabul qilish ichki ishlar vazirining o‘rinbosari raisligida tashkil etiladigan maxsus kasbiy tanlov va ochiqlik mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali olib boriladigan tizim joriy etildi.

Ushbu qarorning yana bir muhim jihatlaridan biri bu magistratura tizimining isloh qilingani bo‘lib, unga ko‘ra magistratura dasturining har bir yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish muddati bir yilni tashkil etib, o‘qishga kirgan xodimlar egallab turgan lavozimlaridan ozod etilishi va magistraturaning tinglovchilar safiga qabul qilinib, ularga oxirgi egallab turgan lavozimi uchun belgilangan pul ta’minoti saqlanishi va muvaffaqiyatli bitirganda oliy ta’limning ikkinchi bosqichini tamomlaganligini tasdiqlovchi diplom berilishi amaliyotga kiritildi.

Shuningdek mazkur qaror asosida quyidagi muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi:

o‘quv jarayoni eng zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinib, professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy-pedagogik salohiyati oshirildi, magistraturaga qabul jarayonini o‘rnatilgan

mezonlarga javob beradigan va o‘qish istagini bildirgan ichki ishlar organlari xodimlari orasidan, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatiga asosan nomzodlarni ochiq va xolisona tanlab olish orqali tashkil etilmoqda;

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berilib, uning zimmasiga IIO sohaviy xizmatlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash, safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida o‘qitish, barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, shu jumladan turdosh yo‘nalishdagi respublika oliy ta’lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda xodimlarni boshlang‘ich tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari tugatilib, ularning shtat birliklari va moddiy-texnika bazasi Malaka oshirish institutiga o‘tkazildi;

IIVning Malaka oshirish instituti tarkibiga Akademiyaning kasbiy tayyorgarlik fakulьtetini o‘tkazilib, besh oylik dastur bo‘yicha ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlariga nomzodlarni maxsus kasbiy tayyorlash amalga oshirilishi hamda kasbiy tayyorgarlik fakulьtetini tamomlagan xodimlarga «kichik serjant» maxsus unvoni hamda belgilangan namunadagi diplom berilishi yo‘lga qo‘yildi.

IIV akademik litseylarining huquqshunoslik fani bo‘yicha idoraviy fan olimpiadasi g‘olibi bo‘lgan bitiruvchilarining Akademiyaga o‘qishga qabul qilinishi uchun faqat maxsus kasbiy tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tishlari yetarli hisoblanadigan bo‘ldi.

Bir so‘z bilan aytganda jamoat xavfsizligi tizimiga professional xodimlarni tayyorlashda yetakchi muassasalardan biriga aylanib, akademiya faoliyati bugungi kunda ham tobora takomillashib bormoqda.

Mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlarning kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [5].

Agar tarixga murojaat qilinadigan bo‘lsa, 1990-yil 15-oktabrda Ichki ishlar vazirligining Oliy kurslari bazasida malakali ofitser kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun tashkil etilib, Toshkent oliy harbiy texnik bilim yurti deb nomlangan [6]. Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 10-yanvardagi Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi yurisdiktsiyasiga olinib, Ichki ishlar vazirligi tizimiga kiritilgan. Bilim yurti 1991 yili ilk kursantlarni qabul qilib, 1995-yilda dastlabki bitiruvchilarni tayyorlab chiqargan. O‘zbekiston Respublikasi IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti: IIV qo‘shinlari va idoralari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanadigan, mamlakat xavfsizligi vazifalarini samarali bajarishga qodir bo‘lgan oliy harbiy ta’lim muassasasi hisoblangan.

Keyinchalik 2017 yil aprelь oyida O‘zbekiston Respublikasi IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Harbiy-texnik instituti etib qayta tashkil qilingan. 2017-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilganidan so‘ng, sohaga malakali va professional kadrlarni tayyorlash zaruriyatidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil noyabridagi Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi IIV Harbiy-texnik instituti, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tasarrufiga o‘tkazildi.

2021-yil 15-apreldagi Prezident qarori

asosida Jamoat xavfsizligi universiteti aynan jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga malakali kadrlarni maqsadli tayyorlashni amalga oshiruvchi bazaviy oliy harbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya uchun jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining tegishincha jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligi va pasport tizimi talablarini amalga oshirish yo‘nalishlarida, Qurolli Kuchlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun harbiy diplomatiya, yurisprudentsiya va iqtisodiyot hamda muhandislik-texnik, tarbiyaviy-psixologik va qo‘mondonlik-taktik faoliyat sohasida hamda o‘z qo‘riqlash tuzilmalariga ega bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari uchun qo‘riqlash faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish sohasining barcha yo‘nalishlarida professional kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Yuqorida keltirilgan qaror assosida yana quyidagi ustuvor masalalar ham o‘zining huquqiy asosini topdi:

jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatni samarali tashkil etishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislarni tegishli ixtisoslik va huquqshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan holda o‘qitish hamda ularni jangovar va jismoniy tayyorgarlikdan o‘tkazish orqali maqsadli tayyorlash;

Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun kadrlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali tizimini joriy etish, ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda vatanparvarlik va yuksak odob-axloq sifatlarini kamol toptirish orqali chuqurlashtirilgan holda tayyorlash;

harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash yo‘nalishida o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyachilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o‘quv jarayonini o‘qitishning zamonaviy shakl va uslublari, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda nazariya va amaliyot uzviyligini ta’minlash orqali tashkil etish;

oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng dolzarb muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlarni, shu jumladan mahalliy va xalqaro grantlarni jalb etgan holda, o‘tkazish;

o‘quv jarayoniga xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malakali mutaxassislarini jalb etish, shuningdek, qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va pedagogik tajriba almashish sohasida doimiy xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan iborat.

Ma’lumki, 2024-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Jamoat xavfsizligi universitetiga tashrif buyurib, yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi [7].

Universitetga 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab talabalar qabul qilina boshlagan. Bakalavriatda 15, magistraturada 8 yo‘nalish bor. Bugungi kunda bakalavriatda mingdan ortiq kursant, maxsus yo‘nalish, sirtqi ta’lim va magistraturada yana shuncha yoshlar tahsil olyapti. Ularga jami 209 nafar o‘qituvchi, professor va fan doktorlari saboq bermoqda. O‘quv tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda umumfuqaroviy asosda o‘qishga ruxsat berilgan bo‘lib, bugungi kunda yurisprudentsiya, iqtisodiyot va psixologiya ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha talabalar tahsil olishmoqda. Universitet bitiruvchilari Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarida samarali xizmat qilmoqda. Shuningdek, o‘z qo‘riqlash tuzilmasiga ega davlat va xo‘jalik organlari uchun shu bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

So‘nggi yillarda universitetning o‘quv binolari kapital ta’mirlanib, barcha sharoit yaratildi. Sport majmuasi va o‘quv-uslubiy situatsion markazi yangidan qurildi. Har biri 300 o‘ringa mo‘ljallangan 6 ta yotoqxona zamonaviy holatga keltirildi.

O‘quv xonalari keng va yorug‘, zamonaviy texnikalar bilan ta’minlangan. Axborot-resurs markazida 90 mingdan ziyod adabiyot va o‘quv qo‘llanmasi, 10 mingdan ortiq elektron adabiyot mavjud.

Ilmiy salohiyatning oshishi 2018-2023-yillarda universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan 245 ta yangi avlod darsliklari, 550 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 62 ta monografiyalar tayyorlanishiga hamda 14 ta davlat granti loyihalari va 3 ta patent olinishiga imkoniyat yaratdi. Universitet faoliyati bugungi kunda ham tobora takomillashib bormoqda va hamkorlik aloqalar yanada rivojlanmoqda.

Xulosa o‘rnida qayd etish lozimki jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini

ta’minlash yo‘nalishiga oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida professional kadrlarni tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu nafaqat IIV va Milliy gvardiya balki Qurolli Kuchlarning barcha kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga salohiyatli mutaxassislarning yetkazib berilishiga zamin hozirlaydi. Bu o‘z navbatida mard, jasur va Vatanga sadoqatli yoshlarga ta’lim tarbiya berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**◄ Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash” va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5749291

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.04.2017 yildagi PF-5005-son. Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/3159827

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 16.08.2017 yildagi PQ-3216-son Qarori. Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/3313218

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 15.04.2021 yildagi PQ-5076-son. Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz/ru/docs/5377619?ONDATE= 02.08.2022 &action=compare

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.04.2021 yildagi PQ-5077-son. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/5377545

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jamoat xavfsizligi universiteti haqida: kecha va bugun! https://milliygvardiya. uz/uz/news/ozbek89547



**Botirov Farxod Avazovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari

# INSON HUQUQINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi va davlat siyosatidagi inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga oid tub islohotlar yoritilgan. Inson manfaatlarini davlat siyosatining markaziga qo‘yish orqali ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar keng tahlil etilgan. Yangi Konstitutsiyada huquq va erkinliklar kafolatlari kuchaytirilib, “inson qadri ulug‘lanadigan davlat” tamoyili ilgari surilgani, sud-huquq tizimi va ijtimoiy himoya sohalaridagi yangiliklar haqida so‘z yuritiladi. Ushbu huquqiy va ijtimoiy yondashuvlar O‘zbekistonning inson huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq himoya qiluvchi xalqparvar davlat sifatida rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, Konstitutsiya, davlat siyosati, ijtimoiy islohotlar, huquqiy kafolatlar, sud-huquq tizimi, xalqparvar davlat, ta’lim, ekologiya, erkinlik.

В статье рассматриваются ключевые реформы, направленные на обеспечение прав и свобод человека в рамках новой Конституции Республики Узбекистан. Подчеркивается, что приоритетами государственной политики стали интересы и достоинство человека, что способствовало существенным изменениям в социальных, экономических и правовых сферах. Особое внимание уделено усилению гарантий прав и свобод в Конституции, концепции «государства, где ценность человека превыше всего», а также изменениям в судебно-правовой и социальной защите. Эти инициативы способствуют формированию Узбекистана как гуманного государства, защищающего права граждан в соответствии с международными стандартами.

Ключевые слова: Ценность человека, Конституция, государственная политика, социальные реформы, правовые гарантии, судебная система, гуманное государство, образование, экология, свобода.

The article discusses key reforms under Uzbekistan’s new Constitution aimed at ensuring human rights and freedoms. The state’s prioritization of human dignity and interests has led to significant transformations in social, economic, and legal domains. It highlights strengthened constitutional guarantees for rights and freedoms, the concept of a «state valuing human dignity,» and innovations in the judicial system and social protection. These initiatives pave the way for Uzbekistan’s development as a humane state aligning with international human rights standards.

Key words: Human dignity, Constitution, state policy, social reforms, legal guarantees, judicial system, humane state, education, ecology, freedom.

Milliy taraqqiyotimizning bugungi kun yangi islohotlar bosqichida yangi O‘zbekistonni bunyod etish jarayonida inson huquqini himoya qilish amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning markazida turuvchi eng ustuvor, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan asosiy masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston halqiga Murojaatnomada 2023 yilga yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”, deya nom berildi va “O‘zbekistonda davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlari ustuvor vazifa ekanligi, har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, yaxshi ta’lim olishi, unga oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasi yaratib berilishi” [1] alohida ta’kidlandi.

Yurtboshimiz tomonidan inson huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirishning yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Bular: inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozimligi, odamlarning sudma-sud sarson bo‘lib yurishiga barham berish uchun adolatli hukm va qaror chiqarish bo‘yicha viloyat sudlarining vakolati, mas’uliyatini oshirish kerakligi, tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiyani prokurordan sudga o‘tkazish muhimligi, mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo‘lishi zarurligi, tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlashi kerakligi, sudda ishlarni ko‘rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusini shakllantirish lozimligi, odil sudlovni ta’minlashda himoyachining huquqlari kengaytirilishi, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ma’muriy sudlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish kerakligi va h.k.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqini taminlashga bag‘ishlangan normalar uch barovarga ko‘paytirilib, ularning ijrosini amalga oshirish huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan chuqur bilim, kuch va amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligini talab etadi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilandi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida ko‘rsatildi.

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlandi. O‘lim jazosini taqiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilandi [2]. Ya’ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgandir. Bu orqali halqaro e’tirof etilgan “Xabeas korpus” institutini qo‘llash ko‘lami yanada kengaydi.

Ilk bor shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik (halqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasi kengaydi. Birinchi marta har kimning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va halqaro shartnomalariga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi halqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqliligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki halqaro huquq asosida ham himoyalanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan

himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi [3] belgilandiki, bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o‘z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo‘yadi.

Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanib, tariximizda ilk bor Asosiy qonunda O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Ma’lumotlarga qaraganda o‘tgan yili mamlakatimizda 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratib berilgan bo‘lsa, bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda esa bu raqamni 200 mingga yetkazish ustida ishlanmoqda.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi.

Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilandi. So‘nggi uch yilda qurilishlardan norozi bo‘lib, aholidan 15 mingta murojaat kelib tushgan, sudlar tomonidan birgina Toshkent shahrida 200 dan ortiq qurilishlar to‘xtatib qo‘yilgan, avtomobillar soni 1,3 millionga ko‘payib, 3,6 millionga yetgan, har yili atmosfera havosiga 2,2 million tonna sanoat va transport tashlanmalari chiqarilayotgani ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Asosiy qonunimizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi belgilandi. Aholimiz va kelajak avlod uchun ekologik toza hududni saqlab qolishning konstitutsiyaviy kafolatlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim olish huquqi va imkoniyati yanada kengaytirildi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi. Ma’lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017 yilgacha oliygohlarda o‘qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o‘zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Magistratura uchun esa 5 baravar ko‘paydi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi ham belgilandi.

Konstitutsiyada davlatning o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o‘qituvchilarning professional o‘sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro‘sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Endi farzandlar tarbiyasi, ularga

ta’lim berish, barkamol voyaga yetkazish ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida o‘rnatildi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan dunyo davlatchiligi amaliyoti va tajribasida uchramagan, kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun butunlay yangi hisoblangan «inson qadri ulug‘lanadigan halqparvar davlat» barpo etish g‘oyasi ilgari surildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «inson qadri uchun» g‘oyasi ilgari surilar ekan, uning mazmuni va asosiy belgilari sifatida har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish, sifatli ta’lim olish zaruriyati ko‘rsatib berildi. Shuni aytish kerakki, inson qadri ulug‘lanadigan ijtimoiy halqparvar davlatni barpo etish yangi O‘zbekistonni shakllantirishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yangi O‘zbekistonning belgilari sifatida har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan, odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, hamma uchun adolatni so‘zsiz ta’minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng bo‘lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlat ko‘rsatib berildi. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g‘amxo‘rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat tushuniladi.

Ayniqsa, keyingi olti-yetti yilda amalga oshirilayotgan tub isloqotlar - davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam halqqa xizmat qilishi, Halq qabulxonalari orqali halqning dardi va muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilishi, mavjud muammolarning joyida hal etilishi, davlat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi, halq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning halqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to‘la joriy etilishi O‘zbekiston chinakam inson qadri ulug‘lanadigan halqparvar, ijtimoiy, demokratik, dunyoviy davlat barpo etish yo‘lida ekanligini ko‘rsatmoqda.

◄ **Iqtiboslar/Чокки/References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston halqiga Murojaatnomasi //Halq so‘zi, 2022 yil 21 dekabr;
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023;
3. Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

**Xodiyev Rustamjon Xamdamovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O‘quv –uslubiy boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari

# KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR - YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING HUQUQIY ASOSI

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar yoshlarga oid davlat siyosatining muhim huquqiy asosi ekanligi konstitutsiyaviy ilmiy nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, mavjud ilmiy amaliy muammolar tahlil etilib, ularni barataraf etishning konstitutsiyaviy huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, Konstitutsiya, konstitutsiyaviy islohot, konstitutsiyaviy huquqiy mexanizm, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqiy ta’lim.

В данной статье с точки зрения конституционной доктрины дается анализ конституционных реформ в Новом Узбекистане в качестве важной правовой основы государственной политики в отношении молодежи. Также анализируются существующие научно-практические проблемы, исследуются конституционно-правовые механизмы их устранения.

Ключевые слова: молодежь, молодежная государственная политика, Конституция, конституционная реформа, конституционно-правовой механизм, правосознание и правовая культура, юридическое образование.

This article, from the point of view of constitutional doctrine, provides an analysis of constitutional reforms in New Uzbekistan as an important legal basis for state policy towards youth. Existing scientific and practical problems are also analyzed, and constitutional and legal mechanisms for their elimination are explored.

Keywords: youth, youth state policy, Constitution, constitutional reform, constitutional and legal mechanism, legal consciousness and legal culture, legal education.



Yangi O‘zbekiston o‘z oldiga hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatini anglab, inson qadri yuksalgan – insonparvar – demokratik va adolatli jamiyat qurishni maqsad qilar ekan bunda tabiiyki yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslariga e’tibor qaratishi shubhasiz. Zero, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sanalmish yoshlar siyosati konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandimi, demak u istiqbolli sanaladi. Agar masalaning mantig‘iga biz o‘zbek xalqining mentaliteti hamda Konstitutsiya davlatning oliy yuridik kuchga ega qonuni ekanligi prinsipidan kelib chiqsak, uning mohiyati yanada oydinlashadi.

Mamlakatimizda joriy yilning 30 aprelida referendum yo‘li bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilingani muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Respublikamizda Konstitutsiyaviy islohotning amalga oshirilgani birinchidan, inson huquq va erkinliklarining ta’minlanishi va uning kafolatlanishi, ikkinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas’uliyati oshirilishi, uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlariga imkoniyatning kengaytirilishi bilan bog‘liqligida ko‘rinadi. Asosiy qonunimizning isloh etilishi shu o‘rinda, mamlakatimiz siyosiy va huquqiy tizimi hamda iqtisodiyot, ijtimoiy yoxud madaniy sohaning rivojlanishi bilan ham bog‘liqligini nazardan qochirmaslik lozim.

Binobarin, O‘zbekiston aholisining yarmini aynan yoshlar tashkil etgani yoxud Yangi O‘zbekistonni qurishda yoshlar yangi kuch, yangi g‘oya, zamonaviy ilm va innovatsion texnologiya sohiblari sifatida namoyon bo‘lishi amalga oshirilayotgan Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy yadrosini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi[1]. Davlat o‘z oldiga xalqni rozi qilishdek konseptual masalani qo‘yayotgani ham bevosita muhim ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlar bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67-son farmonining[2] ahamiyati ham yuqori ekanligini ta’kidlash joiz, deb hisoblaymiz.

Fan va ilmiy nazariy jihatdan davlatning yoshlarga oid siyosati bilan bog‘liq amalda qanday muammolar borligiga e’tibor qaratilsa, bu borada jamiyat va davlat oldida qator muammolar borligi aniq bo‘ladi. Bu esa davlatning “faol fuqaroni tarbiyalash” konsepsiyasiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Birinchidan, Konstitutsiyamizning mazmun mohiyatini va ahamiyatini to‘g‘ri tushunishda real, amaliy muammolar mavjud. Ya’ni mazkur holat uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim muassalari, umumta’lim maktablari, akademik litsey, kollej va texnikumlarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fan sifatida o‘qitilishida namoyon bo‘ladi. Zotan, Konstitutsiyaviy huquq fani afsuski, barcha ta’lim muassasalarida ham mutaxassislar tomonidan belgilangan talab va yetarli darajada o‘qtilmaydi. Aksariyat hollarda masalaga yuzaki yondashilib, vaziyatdan chiqish asosiy vazifa sifatida ko‘riladi. Mazkur fan ta’lim muassasalarida boshqa soha vakillari tomonidan o‘qitiladi. Ma’lum bo‘ladiki, o‘quvchilar Konstitutsiya to‘g‘risida dastlabki yetarli, to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lmaydi. Yoshlar inson huquqlari, burchlari, davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shaxs – jamiyat – davlatning manfaatlari ufg‘unligi kabi huquqiy va siyosiy bilimlarni o‘zlashtirmaydi. Taassufki, natija o‘zining salbiy ta’sirini yoshlarning hayotida keng ko‘lamda uzoq muddatlarga ko‘rsatadi. Mazkur holatda davlatning ma’rifatli shaxsni tarbiyalashdek ustuvor vazifasi amalga oshmay qoladi. Yoshlarga oid davlat siyosati ham darz ketadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda yoshlar, ayniqsa o‘spirinlarning amaliy huquqiy bilimlarini o‘zlashtirish kabi samarali xorijiy tajribadan ununmli foydalanilmaydi. Borlari ham juda kam va to‘liq mamlakat yoshlari doirasini qamrab ololmaydi. Taraqqiy etgan davlatlarda yoshlarning mazkur toifasi uchun “Yuridik klinika” (amaliy huquq) dan foydalanishadi va u o‘z samarasini berishi real hayotdan ma’lum. Natijada xorij yoshlarining ko‘pchiligi o‘z huquqlari bilan birga burchlarini ham teng anglaydigan bo‘lib yetishishadi. Siyosiy va huquqiy jihatdan faol fuqaro sifatida shakllanishadi. Masalan, amaliy huquq bizda fuqarolik pasportini olish, o‘qigan ma’lumoti haqida diplom olish, dastlabki mehnat munosabatlariga kirishish, o‘spirinlar o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda olgan nazariy bilimlaridan

amaliy foydalanishi kabilar tushuniladi. Afsuski, bizning yoshlarimiz bunday amaliy jarayonlarga qachonki o‘zlari shaxsan muammoga duch kelgandagina zarurat sezishadi.

Uchinchidan, yurtimiz yoshlari orasida uchraydigan yana bir salbiy holat, bu ularning aksariyati o‘z huquqlarini anglashi biroq konstitutsiyaviy burchlaridan xabardor emasligidir. Inson huquqlari faqat shaxsga huquqni belgilamaydi, o‘z o‘rnida unga muayyan burchlarga rioya qilishini ham yuklaydi. Ana shundagina yuridik jihatdan huquq to‘liq bo‘ladi. Demak yoshlarning o‘z huquq va burchlarini teng anglashi nafaqat huquqiy faol bo‘lishiga balki yurisprudensiyaning mohiyatini to‘g‘ri tushunishiga ham xizmat qiladi. Yoshlarda burchdorlik hissining shakllanishi ularning oilasiga, mahallasiga, qishloq yoki shahriga, viloyatiga hamda vatani oldidagi mas’uliyatining oshishiga zamin yaratadi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, konstitutsiyaviy huquq va burchlarini teng anglaydigan yoshlarning ko‘payishi, boqi beg‘am, loqayd va xudbin shaxslarning shakllanishining oldini oladi.

To‘rtinchidan, huquqiy tarbiya yoki huquqiy ma’rifatga ijtimoiy tarbiyaning ajralmas, muhim tarkibiy qismi sifatida e’tibor qaratilmasligidadir. To‘g‘ri. Huquqiy tarbiya masalasida jamiyat va davlat miqyosida rasmiy tarzda bo‘lsa-da, muayyan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib qator ishlar amalga oshiriladi. Buni inkor etib bo‘lmaydi. Lekin masalaning individual va oilaviy jihatlari qoniqarsiz holatda qolayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Mazkur holat jamiyat va davlat miqyosida huquqiy tarbiya bilan bog‘liq ishlarning manzilli ravishda aniq sub’ektlarga yetib bormasligida yoki ular tomonidan o‘zlashmasligida ham ko‘rinadi. Har bir yosh avlod vakili huquqiy tarbiya uning shaxsiy manfaati, jamiyat va davlat manfaati bilan uyg‘un bo‘lganda natija berishini bilishi kerak. Shuningdek, huquqiy tarbiya faqat huquqni qo‘llovchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishi degan jamiyatdagi noto‘g‘ri va tor tushunchadan voz kechish vaqti allaqachon kelganini tushunish lozim. Zero, bugungi yoshlar davlat va jamiyat boshqaruvi uchun faol vorislar ekani yoxud ular doimiy ravishda ushbu ijtimoiy qatlam vakili sifatida qolmasligini nazardan qochirmaslik lozim. Vaqti kelib, ular mazkur kategoriyadan chiqib, faol fuqaroga aylanishini, davlat va jamiyat boshqaruvining qonuniyligi yoki adolatliligi aynan yoshlarga bog‘liqligini tushunushimiz va tushuntirishimiz zarur. Yana bir muhim jihat bugungi davrda huquqiy tarbiyani amalga oshirishda shaxsiy ibrat masalasi naqadar dolzarbligini ham unutishga haqqimiz yo‘q. Chunki bugungi yoshlar intellektual asr yoshlari ekanini, ular faqat aytilganni qiladigan emas, aksariyat holatda o‘z ko‘zi bilan ko‘rganini hamda o‘zi guvoh bo‘lgan real harakatni amalga oshirishini nazardan qochirmaslik kerak.

Beshinchidan, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksaltirilishida tizimlilikka amal qilinmayotganligi ham muhim sabab sifatida namoyon bo‘lmoqda. Darhaqiqat, mazkur yo‘nalishda alohida normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, unda “Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oya asosida huquqiy bilimlarni kundalik hayotda tizimli qo‘llay olish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[3] bo‘lsa-da, uni real hayotda to‘liq amalga oshirilayapdi, deb bo‘lmaydi. Umumiy aholimizning yarmini tashkil etuvchi yoshlar uchun huquqiy ma’rifat bugungi kunda zarurat sanalsa-da, u hali real voqelikka aylanib ulgurgani yo‘q. Vaholanki, ushbu farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasi – tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy ravishda amalga oshirilishi mustahkamlangan. Natijada, ayrim yoshlarimiz respublikamiz ichkarisi yoxud uning tashqarisida ham muayyan huquqiy muammolarga duch kelib sarson bo‘lishmoqda. Bu esa tabiiyki ma’lum ma’noda mamlakatning nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Fikrimizcha, bunda asosiy sabab yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning huquqiy bazasi sanalmish mazkur normativ huquqiy hujjat talablarini ba’zi davlat organlari va mansabdor shaxslar yoki ta’lim muassasasi, tashkilot va ayrim shaxslarning talab darajasida bilmasliklari bilan ham izohlash mumkin.

Yangi O‘zbekistonning ma’rifatli shaxsni tarbiyalash bilan bog‘liq yoshlarga oid davlat siyosatining konstitutsiyaviy asoslarining yechimi nimalarda ko‘rinadi? degan Konstitutsiyaviy ilmiy nazariy savolga quyidagi javoblarni berish mumkin.

Birinchidan, yangi tahrirdagi

Konstitutsiyamizda yoshlarga oid davlat siyosatiga bevosita tegishli normalarning mustahkamlanganida ko‘rinadi. Unga ko‘ra, asosoiy qonunimizda oila, bolalar va yoshlarga daxldor alohida yangi bob kiritildi. Shu paytgacha amalda bo‘lgan Konstitutsiyamizda esa mazkur normalar faqat uning muqaddimasi, 41 va 45-moddalarida[4] mavjud edi xolos. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 78-moddasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati[5] sifatida mustahkamlangan. Bizningcha, mazkur normaning Konstitutsiya darajasida belgilanishi davlatning ma’rifatli shaxslarni aynan huquq asosida, dastlab davlat institutlarining, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy institutlar bilan mustahkam hamkorlikda mas’uliyatni zimmasiga olib asosiy qonunimizning mazmun mohiyati va ahamiyatini jamiyat a’zolari, ayniqsa, yoshlar ongiga muhim qadriyat sifpatida singdirishni amalga oshirish majburiyatiga keng imkoniyat yaratadi. Va ushbu huquqiy mexanizm yoshlarga oid davlat siyosatining Konstitutsiyaviy asosini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, aynan shu konstitutsiyaviy moddaning ikkinchi qismida davlat va jamiyat bolalarda yoxud yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatdan yoki xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish haqida g‘amxo‘rlik qilishi ham mustahkamlangan. Fikrimizcha, ma’rifatli shaxsga xos bo‘lgan mazkur ijobiy sifatlar davlat va jamiyat boshqaruvida olgan nazariy huquqiy-siyosiy bilimlarini amalda qo‘llay oladigan, o‘z erkin shaxsiy pozitsiyasiga ega, erkin tafakkurli va mustaqil hamda daxldorlik hissini tuyuvchi ijtimoiy, siyosiy va huquqiy faol fuqarolarning hamda munosib vorislarning tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, asosiy qonunimizning 79-moddasining birinchi qismida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda madaniy yoxud ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi yoki ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirishi ham o‘z ifodasini topgan. Mazkur yangi konstitutsiyaviy normaning belgilanishi ham o‘z navbatida yosh avlod vakillarining nafaqat o‘z huquqlarini balki konstitutsiyaviy burchlarini ham teng o‘zlashtirishiga xizmat qilishi shubhasiz. Sababi davlat faqat shaxsning huquq va erkinliklari himoya qilinishini emas balki uning jamiyat va davlat oldidagi burchlarga amal qilinishini ham rag‘batlantiradi. Natijada mamlakatimizda bu borada mkavjud muammolar ushbu konstitutsiyaviy huquqiy mexanizmlar asosida barham topadi.

To‘rtinchidan, Konstitutsiyaning 50-moddasida davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari hamda shakllari yoki davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida ekanligi yoxud ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiyani ta’minlashi mustahkamlangan. Mazkur konstitutsiyaviy mexanizm orqali davlat huquqiy ta’limning amalda umumiy ta’limning ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi shuningdek, huquqiy tarbiya va huquqiy ma’rifatning yoshlar uchun asosiy qadriyatga aylanishiga erishadi. Va bu o‘z o‘rnida huquqiy ma’rifat jarayonida “shaxsiy namuna” usulining ommalashishiga, yoshlarning aynan erta bolalikdan huquq asosida tarbiyalanishining samarali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli sanaladi.

Beshinchidan, Konstitutsiyaning 79-moddasining ikkinchi qismida davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy tomondan shakllanishi hamda rivojlanishi, ta’lim olishiga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishiga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirshga sharoit yaratishi belgilangan. Demak, huquqiy madaniyati yuksak yoshlarning ko‘pligi davlatning har tomonlama taraqqiyotini belgilar ekan. Ya’ni qayd etilgan davlat va yoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bevosita huquqqa asoslanadi. Inchunun, mazkur huquqiy mexanizm yoshlarning huquqiy va siyosiy jihatdan faollashib ularning davlat bilan o‘zaro munosabati samarali bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Shu nuqtai nazardan yoshlarning hayoti davomida huquqiy madaniyatining bosqichma-bosqichlik asosida yuksalib borishi dastlab faol fuqaro sifatida o‘zi uchun hamda ma’rifatli shaxsni

tarbiyalashda davlat uchun ham birdek manfaatli hisoblanadi. Va ushbu huquqiy norma davlatning bosh yo‘naltiruvchi sub’ekt sifatida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishida samaradorligini ta’minlashga hamda mazkur yo‘nalishda mavjud muammolarni hal etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli sanaladi. Bizningcha, yoshlarning deyarli barchasi ushbu munosabatlarning mantig‘iga ko‘ra ham huquqiy madaniyati yuksak bo‘lishdan manfaatdor hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli shaxsni tarbiyalashda huquq benazir qadriyat sanaladi. Konstitutsiya esa milliy huquqiy tizimning asosiy manbaidir. Shu nuqtai nazardan xalqimizning xohish irodasi asosida referendum yo‘li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz va uning asosidagi konstitutsiyaviy islohotlar ushbu maqsadga erishishda hamda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda muhim huquqiy asos hisoblanadi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O‘zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67-son farmoni. Milliy qonunchilik bazasi ma’lumotlari, 10.05.2023 y., №0/623/67/0269.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son).
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 16-17-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 29-31-betlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2022-yil 25-yanvar kunidagi №1507-sonli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Formati 60x84, 1/8. Segoe UI garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 3,6.